

VOLUME 1 ISSUE 7

## "CONFERENCE ON UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH 2023"

zenodo



ResearchGate



Google Scholar



## OUR FIELDS

- Exact Sciences
- Natural sciences
- Medical sciences
- Technical sciences
- Economics
- Philological sciences
- Pedagogical sciences
- Social and humanitarian sciences
- Psychological sciences
- Arts and cultural sciences
- Physical education and sports



+998 (88) 808-21-07



<http://universalpublishings.com>



"RESEARCH SCIENCE AND INNOVATION HOUSE" MCHJ

# "CONFERENCE ON UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH 2023"



+998 (88) 808-21-07

<http://universalpublishings.com>

VOLUME 1, PART 7



«Conference on Universal Science Research 2023» ilmiy konferensiyasi:

31.07.2023 yil.

Ushbu to'plamda «Conference on Universal Science Research 2023» ilmiy konferensiyasi 2023 yil 1-soni 7-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga **DOI** unikal raqami biriktirilib, **Zenodo**, **Open Aire**, **Google Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman tan olinadi.

**Asos:** O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Konferensiya materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktarantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Konferensiya materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.



**“RESEARCH SCIENCE AND  
INNOVATION HOUSE” MCHJ**



## TAHRIRIYAT

**Bosh muharrir:** Eshqarayev Sadridin Chorievich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot va tabiiy fanlar kafedrasи mudiri, kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O‘zbekiston.

**Mas’ul kotib:**

Boboyorov Sardor Uchqun o’g’li Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi

**Nashrga tayyorlovchi:**

Eshqorayev Samariddin Sadridin o’g’li Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi

## TAHRIR KENGASHI A’ZOLARI

**Texnika fanlari muharriri,** Eshqarayev Ulug‘bek Chorievich – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasи dotsenti, texnika fanlari nomzodi, Denov, O‘zbekiston.

**Texnika fanlari muharriri** Babamuratov Bekzod Ergashevich – Termiz davlat universiteti fizik kimyo kafedrasи dotsenti, falsafa fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

**Kimyo fanlari muharriri** Mirabbos Xojamberdiev Ikromovich- Berlin Technische Universität dotsenti, kimyo fanlari doktori, Berlin, Germaniya

**Kimyo fanlari muharriri,** Eshqurbanov Furqat Bozorovich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, kimyo fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

**Iqtisodiyot fanlari muharriri** Otamurodov Shavkat Tillayevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti prorektori, iqtisod fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

**Ijtimoiy va gumanitar fanlar muharriri,** Xudoyberdiyev Xursand Xudoyberdiyevich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, ijtimoiy-gumanitar fanlar doktori, Termiz, O‘zbekiston.

**Tibbiyot fanlari muharriri** Otamurodov Furqat Abdukarimovich, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali direktori, Termiz, O‘zbekiston tibbiyot fanlari falsafa doktori, Termiz, O‘zbekiston.

**Biologiya fanlari muharriri** Nurova Zamira Annakulovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali. Termiz, O‘zbekiston, biologiya fanlari doktori, dots., Termiz, O‘zbekiston.

**Tibbiyot fanlari muharriri** Turabayeva Zarina Kenjabekovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, tibbiyot falsafa fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

**Sotsiologiya fani muharriri** Eryigitova Lobar Qodirovna Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa sotsiologiya fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

**Filologiya fanlari muharriri** Jo‘rayeva Ramziya Abdurahimovna Qo‘qon davlat pedagogika instituti. Qo‘qon, O‘zbekiston filologiya fanlari fanlari doktori (PhD), katta o‘qituvchi.

**Fizika-matematika-fanlari muharriri** Bobamuratov Ulug‘bek Erkinovich Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa fanlari doktori, fizika-matematika-fanlari, Termiz, O‘zbekiston.

**Tibbiyot fanlari muharriri** Axmedov Kamoliddin Xakimovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son davolash fakulteti dekani, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Tibbiyot fanlari muharriri** Vohidov Alisher Shavkatovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Umumiy xirurgiya, bolalar xirurgiyasi va bolalar urologiyasi kafedrasi mudiri Tibbiyot fanlari doktori, professor

**Gumanitar fanlar muharriri** Rahmonov Abduqahhor Abdusattorovich Ma’naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari, falsafa fanlari doktori (PhD)

## What is the tips to enhance public speaking skills

Bahromova Munisa Otabekovna

Termez State University Foreign Philology Faculty the 2nd course student

[munisabahromova1@gmail.com](mailto:munisabahromova1@gmail.com)

**Annotation :** This article talks about public speaking skills. There was also talk about measures to improve public speaking skills.

**Keywords :** speaking skills , effective , focus easily

If you search "how to improve public speaking," you'll likely find numerous articles suggesting that you practice more, speak with greater confidence, and so on. While these recommendations are indeed valid, they can be quite vague. When I first started public speaking, I thought bringing in a script or cue cards was the right thing to do. That way, my mind won't go blank and I would be able to say everything I prepared. But soon, I realized that relying on scripts will not improve my public speaking. In fact, it made my speech sound overly robotic and monotonous. The audience quickly became disconnected and unengaged. Also, looking at my script or cue cards so often would result in a lack of eye contact with the audience, causing them to lose focus easily. This was the first change I made that improved my public speaking skills. Because I no longer carry a script or cue cards when I'm presenting, I made more eye contact and I speak in a more natural flow with the audience. Many public speakers, including myself, would talk really fast without stopping when we are feeling nervous. At that moment, I thought I was talking and articulating my points well but when I monitored myself, I was clearly speaking too fast. This made it challenging for the audience to grasp the key points I wanted to convey.

Pausing is a powerful public speaking technique that can be used to emphasize key points, create suspense, and engage the audience. When used effectively, pauses can also help the speaker to collect their thoughts and maintain composure during their presentation. After I started incorporating pauses into my talks and presentations, many told me that I seem more confident; even if in reality, I was sweating from nervousness during the whole talk. As someone who has attended numerous conferences and watched countless TED Talks and public speaking videos, I've observed that I tend to concentrate and enjoy presentations delivered by speakers who are evidently passionate about their subject matter.

There is something truly captivating about a speaker who exudes enthusiasm and excitement for what they are sharing, and it makes their message all the more powerful. Whether it's a technical topic or personal story, a passionate speaker has a way of making their audience feel invested and interested in their message.

Putting passion into your talk does not mean you have to speak loudly. While it's true that some speakers use volume to convey their enthusiasm, I've found that a soft-spoken speaker can be just as effective. The key is to convey passion through the tone and inflection of your voice, rather than just the volume. A speaker who speaks with conviction and emotion, even in a quiet tone, can capture the audience's attention and convey their message in a powerful way. So if you're naturally soft-spoken, don't be afraid to speak at your most comfortable volume and focus on the genuine passion and your tone to display that quiet confidence. When I was researching how to be a better public speaker, a common tip that a lot of articles stated was that "adding humour" would be a good way to interact and engage the audience. However, despite the widespread recommendation, I know very well that I'm just not the type to crack jokes in the middle of a talk and I can't naturally blend humour in my words. Forcing myself to do so would feel inauthentic and forced. Instead, I've learned to focus on other techniques, such as storytelling, to connect with my audience and make my presentations more engaging. After all, being true to yourself and your own speaking style is the key to connecting with your audience and delivering a memorable talk. If you've read any of my personal blog articles, you might know that I have a tendency to be a bit of a perfectionist. I'm always striving to improve myself and my skills, which can sometimes lead me to be overly critical of myself.

This trait carried over into my early experiences with public speaking, where I found myself feeling discouraged and demotivated after making even the smallest mistake. It felt like my mistakes were evidence of my incompetence, and I began to doubt if I could ever improve my speaking skills.

Eventually, I learned to approach mistakes with a different mindset. Instead of viewing mistakes as a sign of failure or incompetence, I began to see them as opportunities for growth and improvement. I learned to be more forgiving of myself, recognizing that making mistakes is a natural part of the learning process. Whenever an opportunity to speak came up, whether it was for volunteer work or school activities, I would raise my hand. Now, saying 'yes' to speaking opportunities became almost a habit. Gradually, I became more confident in my speaking abilities, and I now enjoy sharing my knowledge and insights with others through Twitter Spaces, talks, panel discussions, etc.

## References:

1. N.I. Gez, M.V. Lyakovitskaya, A.A. Mirolyubov. Methodology of teaching foreign languages

2. IMPORTANCE OF ATTENTION IN PRESCHOOLERS' COGNITIVE DEVELOPMENT TO PROGRESS ACADEMIC PERFORMANCE Iminova Xumora Mukhammadisa kizi 2020/7 EPRA International Journal of Research and Development Том 5 Номер 7 Страницы 101-103 Издатель EPRA JOURNALS
3. Harmer, J. 2011. How to Teach English. United Kingdom. Pearson Education.
4. Heinich, R, et all, 1996. Instructional Media and Technologies for Learning. Prentice-hall. USA

## The latest speaking activities Bahromova Munisa Otabekovna

Termez State University Foreign Philology Faculty the 2nd course student

[munisabahromova1@gmail.com](mailto:munisabahromova1@gmail.com)

**Annotation :** This article discusses what the activity is, its types, and the latest speaking activities.

**Keywords :** self-learning , contexts , specific task , agree/disagree .

In Activity-based Learning, education takes a child-centred approach. This approach develops self-learning skills and encourages children to study according to their skills. The learner is given a report card only after completing all the steps in a subject . Speaking activities with a clear communicative goal work best. For example, 'Tell your partner what you did at the weekend and find one thing you have in common' gives learners a specific task and an end goal so that they know when they have achieved it. Speaking skills are one of the most important skills we learn, as they allow us to communicate with others and express our thoughts and feelings. Speaking skills can be separated into formal and informal speaking skills, and we use both types of speaking skills in a variety of contexts throughout life. The goal of teaching speaking skill is communicative efficiency and enable students to communicate verbally in daily life. Then, it is crucial for the teacher to take responsibility for checking the students understanding the language being used and the purpose of the activities is being carried out. Speaking is "the process of building and sharing meaning through the use of verbal and non-verbal symbols, in a variety of contexts" (Chaney, 1998, p. 13). Speaking is a crucial part of second language learning and teaching. Despite its importance, for many years, teaching speaking has been undervalued and English language teachers have continued to teach speaking just as a repetition of drills or memorization of dialogues. However, today's world requires that the goal of teaching speaking should improve students' communicative skills, because, only in that way, students can express themselves and learn how to follow the social and cultural rules appropriate in each communicative circumstance. In order to teach second language learners how to speak in the best way possible, some speaking activities are provided below, that can be applied to ESL and EFL classroom settings, together with suggestions for teachers who teach oral language. After a content-based lesson, a discussion can be held for various reasons. The students may aim to arrive at a conclusion, share ideas about an event, or find solutions in their discussion groups. Before the discussion, it is essential that the purpose of the discussion activity is set by the teacher. In this way, the discussion points are relevant to this purpose, so that students do not spend their time chatting with each

other about irrelevant things. For example, students can become involved in agree/disagree discussions. In this type of discussions, the teacher can form groups of students, preferably 4 or 5 in each group, and provide controversial sentences like "people learn best when they read vs. people learn best when they travel". Then each group works on their topic for a given time period, and presents their opinions to the class. It is essential that the speaking should be equally divided among group members. At the end, the class decides on the winning group who defended the idea in the best way. This activity fosters critical thinking and quick decision making, and students learn how to express and justify themselves in polite ways while disagreeing with the others. For efficient group discussions, it is always better not to form large groups, because quiet students may avoid contributing in large groups. The group members can be either assigned by the teacher or the students may determine it by themselves, but groups should be rearranged in every discussion activity so that students can work with various people and learn to be open to different ideas. Lastly, in class or group discussions, whatever the aim is, the students should always be encouraged to ask questions, paraphrase ideas, express support, check for clarification, and so on. Teaching speaking is a very important part of second language learning. The ability to communicate in a second language clearly and efficiently contributes to the success of the learner in school and success later in every phase of life. Therefore, it is essential that language teachers pay great attention to teaching speaking. Rather than leading students to pure memorization, providing a rich environment where meaningful communication takes place is desired. With this aim, various speaking activities such as those listed above can contribute a great deal to students in developing basic interactive skills necessary for life. These activities make students more active in the learning process and at the same time make their learning more meaningful and fun for them.

## REFERENCES:

1. PQ 1875 "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tovgvrisida" gi qaror. "Xalq so'zi" gazetasi, 2-bet. 2012 yil, 10-dekabr
2. Boswood, T. (1997). New Ways of Using Computers in Language Teaching (New Ways in Tesol Series II), California: Teachers of English to Speakers of Other Languages.
3. Harmer, J. (2007). How to teach English, Harlow, Essex: Pearson-Longman

## ШУКУР ХОЛМИРЗАЕВНИНГ АДАБИЙ-ТАНҚИДИЙ МЕРОСИГА ДОИР

Сафаров Отабек Мухаммадиевич

Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети мустақил тадқиқотчиси

**Аннотация:** Ушбу мақолада Ўзбекистон халқ ёзувчиси Шукур Холмирзаевнинг адабий-танқидий қарашлари, уларнинг ўзига хос хусусиятлари, шунингдек, манбалари ва босқичлари ўрганилган. Адибнинг адабий-танқидий қарашлари ўсиб-ривожланиб боргани таҳлил қилиниб, ёзувчининг шу йўналишдаги меросини тадқиқ этишининг аҳамияти кўрсатиб берилган.

**Калит сўзлар:** Шукур Холмирзаев, ёзувчининг адабий-танқидий қарашлари, эпистоляр, ҳикоя, услугуб, бадиий шакл, “Адабиёт ўладими?”, Карпентер, комил инсон орзуси, ёзувчиликнинг мактаби.

Ижодкорнинг адабий-танқидий, эстетик қарашлари нафақат муаллифнинг ижодини тўлароқ ўрганишга ёрдам беради, айни пайтда унинг дунёни идрок қилиши ва бу англамларининг ўз асаларида зухур этишини кузатишда, бадиий дидининг шаклланиш омилларини билишда, ҳаёт, инсон ва адабиётга муносабатини аниқлаштиришда ҳам энг биринчи манбадир. Чунки шоир-ёзувчининг адабий-танқидий фаолияти унинг ижоддаги изланишлари, бинобарин, маҳорат бобида ўсиш ва чекинишларини ҳам кўрсатиши билан қимматли. Масалан, Шукур Холмирзаев шундай ёзади: “Ўтган беш-олти йил мен учун оғир йиллар бўлди. Ёзишни қайта бошдан машқ қилиб, кўп кўчаларга кириб чиқдим – адашмайдиган, ҳамиша тўғри йўлдан юрадиган ёзувчиларга ҳавас қиласман...”<sup>1</sup> Бу жумлаларда доимий изланишда бўлган, услугуб, бадиий шакл бобидаги ўзига хосликларни англаб ва ижодига татбиқ қилиб бораётган ёзувчининг иқрорлари акс этади, адабиётда новаторликка эришиш биринчи галда

<sup>1</sup> Холмирзаев Ш. Режаларимми?//“Ўзбекистон маданияти”, 1973 йил, 26 январь.

бошқалар ижодини чукур ўрганиш ва таҳлил қилишни талаб этади, деган хуоса англашилади.

Бизнингча, Шукур Холмирзаевнинг адабий-танқидий, бадиий-эстетик қарашлари қуйидаги йўналишларда моддийлашган:

- илмий-адабий мақолаларида;
- адабий-публицистик сұхбатлари, интервьюларида;
- сўзбошилари, сўнгсўзларида;
- ёзувчиларга ёзган хатларида;
- қутлов-табрикномаларида;
- кундаликларида, қайд ва изоҳларида;
- адабий эссе ва очеркларида.

Илмий кузатишлар шундан далолат берадики, Шукур Холмирзаевнинг адабий-эстетик қарашлари ўзга санъаткорларнинг шу хилдаги фикрларидан изчиллиги, мунтазамлиги ва пухта илмий асосларга эгалиги билан ажралиб туради. Зеро, кўпчилик ижодкорлар адабиётшуносликка онда-сонда қандайdir бир муносабат туфайлигина мурожаат қилган бўлсалар, Ш.Холмирзаев адабиёт илми билан бутун онгли умри давомида жиддий ва мунтазам шуғулланиб келди. Бунинг асосий сабаби у адабиёт илмини адабий жараёндан, илмий изланишларни бадиий ижоддан айри тутмади. Эълон қилинган ва шахсий архивида сақланаётган юзга яқин адабий-танқидий мақолалари, сұхбатлари, такриз ва сўзбошиларида ёзувчининг ўзига хос ёндашуви, кўзқарashi, сўзга ва ижодга бўлган муносабати яққол сезилиб туради. Гарчи улар турли мавзуу ва йўналишларда бўлса-да, лекин деярли барчасини адабиётга бўлган муҳаббат, сўзга нисбатан садоқат, ижодга бўлган масъулият туйғулари уйғунлаштиради.

Ёзувчи адабий машқларини анча эрта – ўқувчилик давриданоқ бошлаган бўлса, ана шу ижодий изланишлари моҳияти ҳақида фикр юритиш ва уларни

матбуотда чоп этиш босқичига кейинроқ – талабалик даврида келади. Шукур Холмирзаевнинг адабий-танқидий меросини босқичга бўлиб ўрганиш мумкин.

**1. 1960–1975 йиллар.** Очиги, ушбу даврда адебнинг адабий-танқидий қарашларини акс эттирувчи чиқишилари сони кўп эмас. Жумладан, Москвада ёшлар иштирокида бўлиб ўтган адабиёт кунлари таассуротларига бағишлиланган “Улкан якун, зўр синов”, “Кенгаш таассуротларидан” сарлавҳали муҳтасар мақолалар, ҳикоя жанри табиати тўғрисида фикр юритилган дастлабки “Ҳикоя ҳақида” мақоласи, Неъмат Аминов ижодига оид “Довонлар олдинда” тақризи, ижодий ниятлари ҳақидаги “Режаларимми?” сарлавҳали мақоласи ҳамда “Танқидчига уч мактуб” умумий номи билан Иброҳим Ғафуровга йўлланган учта очиқ хати шу даврга мансуб. Бироқ ёзувчининг бу йиллардаги адабий-танқидий қарашларининг аҳамияти шу билан характерланадики, биринчидан, у ижодий услубини топиш борасида мунтазам изланишдалигини маълум қиласди. Масалан, “Ўзбекистон маданияти” газетасида чоп этилган “Режаларимми?” мақоласида адиб: “Ўтган беш-олти йил мен учун оғир йиллар бўлди. Ёзишни қайта бошдан машқ қилиб, кўп кўчаларга кириб чиқдим”, деб қайд этади. Иккинчидан, адебнинг Иброҳим Ғафуровга йўллаган учта мактуби бадиий асарни таҳлил қилиш, унинг моҳиятига кириш, ижодкор дунёқарашини англаш ҳамда адабий танқидчининг бу борадаги ютуқ ва камчиликлари юзасидан илмий-назарий фикр юритилгани билан аҳамиятлидир.

**2. Адебнинг 1975–1991 йилларда яратилган адабий-танқидий мақолаларида** адебнинг адабиёт ва ижод ҳақидаги қарашлари муайян даражада қарор топгани кўринади. Айнан шу даврда чоп этилган, танқидчи Умарали Норматов билан қилинган “Услуб, бадиий шакл муаммолари” сарлавҳали суҳбат-мақолада илгари сурилган ғоя-хулосалар ёзувчининг кейинги фаолияти учун ижодий тамойилга айланганини қўрамиз. Масалан, Шукур Холмирзаев адабий дидни юксалтириш, ўкувчини тафаккурга чорлайдиган услубда ижод қилишни ижодкорнинг вазифаси сифатида кўради: “Шахсан мен китобхонни бир ёққа

торта билган, унинг дидига мўлжаллаб – унга асарини нима қилиб бўлса ҳам ёқтириш мақсадида эмас, ўша дидни бир баҳя бўлса-да кўтариш ниятида тер тўккан ёзувчиларни севаман” [4]. Эътиборли жиҳати шундаки, Шукур Холмирзаев жаҳон адабиёти намоёндалари ва замондош ижодкорлар, уларнинг ижодий фаолияти хусусиятларига баҳо берганда ҳам, адабий жанрлар табиати ҳақида фикр юритганда ҳам, бадиий услугуб ва уни шакллантириш йўл-йўриқлари тўғрисида сўзлаганда ҳам, биринчидан, адабиёт илми мезонларидан келиб чиқади, иккинчидан, фикрларини мисоллар ёрдамида далиллайди, учинчидан, ўзининг мулоҳазалари якуний, барчага мажбурий хуласа эмас, талқин ўлароқ қабул қилинишини сўрайди.

**3. Шукур Холмирзаевнинг 1991–2004 йиллардаги адабий-танқидий мероси.** Ушбу давр адибнинг ҳам ижодий, ҳам адабий-танқидий фаолияти учун жуда самарали бўлган, дейишга ҳар жиҳатдан асос бор. Бу йилларда “Адабиёт ўладими?”, “Ёзувчиликнинг мактаби йўқ...”, “Адиб шахс бўлиши керак”, “Адабиёт, адабиёт, адабиёт...”, “Ёзувчи ким?”, “Орзуларнинг аламли юки”, “Фақат ўзлигимни англашим учун ёзаман...”, “Кечирасиз, жаноб Карпентер, вақтим зикроқ!”, “Комил инсон орзуси”, “Айтар сўзимизга масъул бўлайлик”, “Ўттиз беш ёшда ҳам...”, “Жаҳонбоп асар ёза оламан, лекин...”, “Шолоховнинг ашаддий муҳлиси эдим...”, “Толстойнинг нияти мени мафтун этган” ва бошқа – ёзувчининг олам, одам, адабиёт, ижод, тарбия каби тушунчалар ҳақида баҳс этган мақола-сұхбатлари юзага келди. Уларнинг асосий хусусиятлари шуларда кўринадики, аввало, ўтиш даври жараёнларини бадиий идрок обьекти сифатида ижодида акс эттирган ёзувчи адабий-танқидий қарашларида ҳам таҳлил қилиб, қадриятларга эътиборнинг сусайиши, инсон табиатига мол-дунёга ҳаваснинг ортиши ва унинг маънавий оқибатлари ҳақида мулоҳаза юритади. Иккинчидан, “Ижодкорнинг шахси бутун бўлиши керак”, деган тезисни илгари суриб, ёзувчи-шоирларнинг ўз ижоди ва жамият олдидаги масъулиятини кўрсатиб беради. Учинчидан, Шукур Холмирзаев айни даврдаги адабий-танқидий қарашларида ўз

ижодий йўлига баҳо беради, услубини шакллантирган омилларни кўрсатиб беради, реализм адабий методига риоя этишининг сабабларини асослаб беради. Тўртинчидан, янги адабий методларга муносабатини билдириб, ушбу йўлда асар ярататгандан ёзувчиларнинг ютуқ-камчиликларини таҳлил қиласи.

Ҳар қандай ижодкорнинг (бизнинг тадқиқотимиз мисолида, Шукур Холмирзаевнинг) адабий-танқидий қарашларини илмий тадқиқ этишнинг амалий аҳамияти шундан иборатки, бундай қарашлар тизими у мансуб жамият ойдинларининг муайян даврий босқичдаги интеллектуал савиясини кўрсатади. Шу орқали ўша даврда яшаган кишиларнинг тафаккур тарзи ва туйғулари йўналишини билиш ва улар ҳақда яратилган асарларни тўғри тушуниш ҳамда холис илмий тадқиқ этишнинг йўлларини белгилаб олиш мумкин. Шунингдек, бирор асар ҳақидаги қарашлар унинг қандай нуқтаи назарлар тизими асосида юзага келганлигини бехато аниқлашга ёрдам қиласи. Бинобарин, ёзувчининг адабий-танқидий қарашлари унинг ўз ижодига баҳо берилган илмий концепциягина бўлиб қолмай, балки замондошлари яратган асарлардаги етакчи бадиий-эстетик жиҳатларнинг асл қиммати нимада эканлигини билишга шароит яратиши билан ҳам қиммат касб этади.

### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Холмирзаев Ш. Қорақалпоқ халқининг талантли адаби//“Гулистон”, 1969. № 8.
2. Холмирзаев Ш. Муборакбод//“Гулистон”, 1969. № 11.
3. Тошбоев О. Абадий замондош. Шукур Холмирзаев ҳаёти ва ижодий фаолиятидан лавҳалар. –Т.:Faфур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2018. 377-б.
4. Холмирзаев Ш. Услуб, бадиий шакл муаммолари (Сұхбатдош – Умарали Норматов)//“Шарқ ўлдузи”, 1977 йил. № 8.

## Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarining maqsad, vazifalari

**Qutlimuratova Dinora Ravshanbek qizi.**  
**UrDU 3-bosqich talabasi**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o‘qish darslarining maqsadi va vazifalari haqida so‘z boradi. Talabalar egallashlari kerak bo‘lgan malakalar qayd etiladi.

**Kalit so‘zlar:** o‘qish darslari, o‘quvchi, topshiriq, bilim, malaka, malaka.

O‘zbekistonning kelajagini buyuk davlat darajasiga ko‘taradigan ijodkor shaxsni yaratishda boshlang‘ich ta’lim poydevor vazifasini bajaradi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining asosiy maqsadi – o‘quvchilarning bilimli, va fikrlash doirasi keng bo‘lishini ta‘minlash. Ularning ma’lumotlarini tahlil qilib, keng miqyosda foydalanimishiga erishish. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang‘ich sinflarda o‘qituvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga mohirona tadbiq eta olishi, ilg‘or pedagogik tajribalardan mohirona foydalana olishi, ta’lim berishning yangi-yangi usullarni ishlashi juda muhim ahamiyat kasb etadi. 2020-yil 23-sentabrdagi «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunning 9-moddasi I–IV sinflarni o‘qitishga bag‘ishlangan.<sup>1</sup> 1997-yil 6-oktabrdagi «O‘zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning 3.3.1 bandida uzlusiz ta‘limni rivojlantirishda I–IV sinflarda o‘qitishni tashkil qilishning rejali ko‘rsatilgan. Maktab ta’limi oldiga qo‘yilgan tamoyil, yangi maqsadlarning qo‘yilishi matematika o‘qitish mazmunining tubdan o‘zgarishiga olib kelmoqda. Biz uchun o‘z dolzarbligi va ahamiyatini yo‘qotmaydigan yana bir masala, bu-farzandlarimizni mustqail fkri, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash vazifasidir.<sup>2</sup>

Boshlang‘ich sinf “O‘qish kitobi” darsliklariga kiritilgan muayyan mavzular o‘quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirishi, dunyoqarashlarini milliy istiqlol mafkurasi asosida to‘g‘ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi. Shunga ko‘ra, o‘qish darslarining yetakchi xususiyati o‘quvchilarning savodxonligini ta‘minlash bilan birga, o‘quvchilarni milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi. Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida o‘rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo‘lib, ular ona tabiat, yil fasllari, xalq og‘zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqlol va ma’naviyat kabi umumiyl mavzular doirasida birlashtirilgan.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni 9-modda, 4-bet

<sup>2</sup> Sh.Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”, Toshkent “O‘zbekiston” 2016-y. 103-bet

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslari o‘z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko‘ra ta’lim tizimida alohida o‘rin tutadi. Negaki, uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta’limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta’limini o‘qish ta’limisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

O‘quvchi matnni to‘g‘ri, tez, tushunib o‘qish, mazmunini o‘zlashtirish bilan ilk bor o‘qish darslarida yuzlashadi. O‘qish darslari orqali o‘quvchilarning Davlat ta’lim standarti (DTS) talablari bo‘yicha o‘zlashtirishlari ko‘zda tutilgan o‘quv-biluv ko‘nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo‘l ochiladi. Aynan o‘qish ta’limida insonning, avvalo, o‘zligini, qolaversa olamni anglashga bo‘lgan intilishlariga turtki beriladi. Shu maqsadda “O‘qish kitobi” darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o‘rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlol va milliy-ma’naviy qadriyatlar, xalqlar do‘sligi va tinchlik kabi turli mavzular bo‘yicha atroflicha tushunchalar berishga mo‘ljallangan badiiy, axloqiy-ta’limiy, ilmiy ommabop asarlar kiritiladi.<sup>3</sup>

O‘qish (1-4-sinf) fanini o‘qitishning asosiy vazifasi:

-o‘quvchilaming og‘zaki nutqi adabiy til me’yorlari asosida shakllanishi va rivojlanishini ta’minalash, nutqiy kompetensiyani o‘stirish;

-yozma nutqda yuksak savodxonlik, adabiy til me’yorlariga rioya etish, uslubiy rang-baranglikdan foydalana olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish hamda dastlab tanish, keyin notanish matn ifodali o‘qilib, o‘quvchidagi ko‘nikma, malaka aniqlanadi. Shuningdek, miqdoriy ko‘rsatkich - o‘qish tezligi, ongli va ravon o‘qish, bit daqiqada nechta so‘z o‘qiy olishi ham belgilanadi.

3- va 4-sinflar o‘qish dasturida mavzular ko‘lami ancha kengayadi. Bu sinflarda o‘qish darslarining kattagina qismi asami o‘qish va matn ustida ishlashga qaratiladi. Darsda o‘quvchilaming faolligini oshiradigan, tasavvurlarini boyitadigan usullardan foydalanish, asarami janr mazmunidan kelib chiqib, rollarga bo‘lib o‘qish, qahramonlar nomidan qayta hikoya qilish, qahramonning taqdiri haqidagi hikoyani davom ettirish, qiziqarli mavzularda og‘zaki hikoya tuzdirish kabi ijobiy topshiriqlardan foydalanish kabi ishlar amalga oshiriladi.<sup>4</sup> Sinfda o‘qish darslari quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. O‘qish malakasini takomillashtirish. O‘quvchilarda yaxshi o‘qish sifatlari: to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish.

<sup>3</sup>K.Qosimova va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent “NOSIR” nashriyoti 2009. 67-bet

<sup>4</sup>O‘.Asqarova,D.Muminova.O‘qish darslarida zamонавиј pedagogik texnologiyalar.Namangan:2019-y.10-bet.

2. Bolalarda kitobga muhabbat uyg‘otish, kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimni olishga, ya’ni kitob bilan ishlashni biladigan, chuqur fikrlovchi, sermullohaza kitobxonlarni yetishtirish.

3.O‘quvchilarning tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, dunyoqarash elementlarini shakllantirish.

4. O‘quvchilarni axloqiy-estetik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash.

5. O‘quvchilarning nutqini va tafakkurini o‘stirish.

6. Adabiy tasavvur elementlarini shakllantirish.

Bu vazifalarni bajarishning aniq yo‘li bo‘lishi zarur. Yaxshi o‘qish malakalarining sifatlari va ularni takomillashtirish yo‘llari.Yaxshi o‘qish malakalarining sifatlariga to‘g‘ri, tez, ongli va ifodali o‘qish kiradi va ular o‘qish darslarida o‘zaro bog‘liq holda takomillashtiriladi, bu to‘rt o‘qish sifati bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Ongli o‘qish asosiy hisoblanadi, chunki o‘quvchi o‘zi o‘qisa-yu, o‘qiganini anglamasa, bunday o‘qish talabga javob bermaydi, o‘qiganini tushunmaslikka olib keladi. To‘g‘ri o‘qish ongli o‘qishga xizmat qiladi. Tez, to‘g‘ri, ongli o‘qish ifodali o‘qishning asosi hisoblanadi. Yaxshi o‘qish sifatlarini egallash maktabda barcha fanlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishning sharti hisoblanadi. O‘qish malakasi murakkab malaka bo‘lib, uning shakllanish jarayonini metodist T.G.Egorov 3bosqichgabo‘ladi:

**1. Analitik bosqich (o‘qish).** Savod o‘rgatish jarayoniga to‘g‘ri keladi. Unda bolalarda so‘zlarni bo‘g‘inlab o‘qish malakasi shakllantiriladi.

**2. Sintetik bosqich (o‘qish).** Bu bosqichda so‘zni sidirg‘a o‘qish malakasi shakllantiriladi. Bunda so‘zni ko‘rish bilan uning tovush tomoni idrok qilinadi. So‘zning talaffuzi bilan ma’nosini anglash mos keladi. Sidirg‘a o‘qishga asosan o‘quvchilar 3-sinfda o‘tadilar.

**3. Avtomatlashgan o‘qish.** Bu o‘qishda o‘quvchi-kitobxon so‘zning bosh qismiga qarab o‘qib ketaveradi. O‘qishning keyingi yillariga to‘g‘ri keladi. 4-sinfda ba’zi o‘quvchilar o‘qishi avtomatlashadi.

O‘qish darslari shunday tashkil qilinishi kerakki, mazmunini tahlil qilish yaxshi o‘qish malakalarini takomillashtirishga yo‘naltirilsin. Yaxshi o‘qish malakasining sifatlardan biri to‘g‘ri o‘qishdir. To‘g‘ri o‘qishga bir nechta metodist olimlar ta’rif bergenlar:

K.Qosimova: to‘g‘ri o‘qish xato qilmasdan, yanglishmasdan o‘qishdir. Shu ta’rifni kengaytirib: to‘g‘ri o‘qish so‘zning tovush-harf tarkibini, grammatik shaklini buzmasdan, so‘zdagi biror tovush yoki bo‘g‘inni tushirib qoldirmasdan, ortiqcha tovush yoki bo‘g‘in qo‘shmasdan, harflarning o‘rnini almashtirmasdan, so‘zning urg‘usiga rioya qilib o‘qish to‘g‘ri o‘qishdir.

M.Odilova,

T.Ashrapova: "Adabiy talaffuz normalariga qo'yilgan barcha talablar to'g'ri o'qish ko'nikmasiga ham taalluqlidir", deyishadi. Demak, ularning fikricha, materialni adabiy talaffuz normalariga rioya qilgan holda o'qish **to'g'ri o'qish** deyiladi. Rus metodisti Yakovleva: "To'g'ri o'qish bu materialni tovush tomonidan xatosiz va bir tekisda ravon nusxa ko'chirishdir". Har 3 ta ta'rifning mohiyati bir xil. Ya'ni to'g'ri o'qish so'zning tovush tarkibini grammatic shaklini buzmasdan, adabiy-orfoepik talaffuz normalari asosida o'qishdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari to'g'ri talaffuz bilan matn ma'nosini puxta sintez qilishga qiynaladilar. O'qish ko'nikmalarini takomillashtirish uchun asar ustida ishslashni o'qitish bilan birga amalga oshirish zarur.<sup>5</sup>

O'qish darslarini davlat talablari asosida hayotiy tajribalarga, kuzatishlarga suyanib, hayotga bog'lab o'tishi uning ta'sirchanligi ongli idrok etishlarini ta'minlaydi. O'qish va nutq o'stirishning ta'limiy - tarbiyaviy maqsadlari, sinflar bo'yicha o'qish mazmunini o'qish ko'nikmalarining og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish usullarini, o'qish mashg'ulotlarining yozma nutq bilan bog'lanish kabi masalalar aniq kiritilgan. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslari yuqori sinflardagi o'zbek adabiyoti, tarix, geografiya, biologiya va boshqa fanlarni o'zlashtirish uchun dastlabki asosni yaratadi. Shuning uchun boshlang'ich sinflardagi o'qish darslariga jiddiy e'tibor talab qilinadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. Sh.Mirziyoyev "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz", Toshkent "O'zbekiston" 2016-y.
3. K.Qosimova va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent "NOSIR" nashriyoti 2009.
- 4.O'.Asqarova,D.Muminova.O'qish darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar.Namangan:2019-y

<sup>5</sup> K.Qosimova va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent "NOSIR" nashriyoti 2009. 75-bet

## O'qish darslarini zamonaviy ta'lif texnologiyalari asosida tashkil qilish metodikasi

**Qutlimuratova Dinora Ravshanbek qizi.  
UrDU 3-bosqich talabasi**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, o'quv jarayonida pedagogik texnologiyalar haqida so'z boradi. Interfaol usullar muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** o'quv darslari, zamonaviy ta'lif texnologiyalari, pedagogik texnologiyalar, pedagogik texnologiyalar, metodlar.

Hozirgi kunda ta'lif jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib topishlariga, mustaqil o'r ganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchlik funksiyasini bajaradi. Ta'lif jarayonida o'quvchi talaba asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun oliv o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari-interaktiv metodlar, Innovatsion texnologiyalarning o'rni va ro'li benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Innovatsiya (inglizcha innovation)-yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalilanadi.

Interaktiv metodlar-bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lif mazmuninng tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: -O'quvchi-talabaning dars davomida befarq bo'lmasslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

-O‘quvchi-talabalarni o‘quv jarayonida bilimga bo‘lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo‘lishini ta’minlashi;

-O‘quvchi-talabaning bilimga bo‘lgan qiziqishini mustaqil ravishda har-bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;

-Pedagog va o‘quvchi-talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o‘rganayotgan o‘qituvchilar, ilmiy-tadqiqodchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog’lq, hamda o‘qitish jarayonida qo‘llanishi zarur bo‘lgan kompyuter, masofali o‘qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Bizning fikrimizcha, pedogik texnologiyaning eng asosiy negizi bu o‘qituvchi va o‘quvchi-talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog‘liq deb hisoblaymiz, ya’ni o‘qitish jarayonida maqsad bo‘yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo‘llaniladigan har bir ta’lim texnologiyasi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlik faoliyatni tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o‘quv jarayonida o‘quvchi-talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijobiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o‘zлari xulosa qila olsalar, o‘zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o‘qituvchi esa ularning bunday faoliyatları uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha ana shu o‘qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o‘quv predmetining o‘ziga xos texnologiyasi bor, ya’ni o‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiya bu yakka tartibdagi jarayon bo‘lib, u o‘quvchi-talabaning ehtiyojidan kelib chiqqa xolda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. Har bir detalda o‘ylangan bo‘g‘inning modeli ta’lim faoliyati talabalar va o‘qituvchilar uchun qulay shart-sharoitlarni so‘zsiz ta’minlash bilan o‘quv jarayonini loyihalash, tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha, ya’ni ta’lim jarayonini amalga oshirishning mazmunli texnikasi.

O‘rganish shunday amalga oshiriladiki, bilimlarni o‘zlashtirish nafaqat yodlash asosida, balki ko‘proq darajada bilimlarni kognitiv vazifalarni hal qilish jarayonida ongli ravishda qo‘llash orqali amalga oshiriladi. Bunda o‘quvchilar mavjud ma’lumotlardan mulohaza yuritishni va undan foydalanishni o‘rganadilar. O‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish jarayonida quyidagilar qo‘llaniladi: muammoli savollar, dasturlashtirilgan topshiriqlar, bilimlarni tekshirish va mustahkamlash bosqichida kartalar bo‘yicha farqlangan vazifalar, didaktik o‘yinlar. Bularning hammasi didaktik material aqliy operatsiyalarni shakllantirish jarayonida har xil turdagи yordam (tashkil etish, rag‘batlantirish, o‘qitish) ko‘rsatadi. Shunday qilib, biz o‘qitish odatda bitta

emas, balki bir qancha usullarni, ularning kompleksini talab qiladi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Turli xil o‘qitish usullari o‘quvchilarning bilim faolligini oshiradi. Usullarning kombinatsiyasi o‘quv materiali mazmunining o‘ziga xos xususiyatlarini eng yaxshi tarzda hisobga olish, bilimlarni o‘zlashtirishning eng oqilona usullarini tanlash imkonini beradi. Faol ta’lim texnologiyalaridan foydalanish asosida o‘quvchining bilish imkoniyatlarini har tomonlama rivojlantirish uchun sharoit yaratiladi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

- 1.J.G‘.Yo‘ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari.— T.: O‘qituvchi, 2004.
2. G.M.Anorqulova “Ta’lim texnologiyalari”. T.:Innovatsiya-Ziyo. 2021-yil.
3. K.Qosimova va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent “NOSIR” nashriyoti 2009.
- 4.O‘.Asqarova,D.Muminova.O‘qish darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar.Namangan:2019-y.

## EDUCATION OF PHYSICAL EDUCATION AT SCHOOL

**Elboeva Umida Rakhimdzhon kizi**

**Nukus State Pedagogical Institute Student of the faculty "Physical culture"**

**Annotation:** This issue should be in the focus of the entire teaching staff when solving large-scale physical education tasks at school. Gone are the days when all the physical education issues at school were left to the physical education teacher alone.

**Keywords:** school, teacher, physical education, student, planning.

Experience in physical education has shown that educators who pay close attention to the planning of their work achieve high results. Plans allow you to look ahead, look ahead, set goals and clear objectives, ways to solve the tasks and sources of greater efficiency.

There are also cases of neglect of planning in practical work, which is a formality in planning, which is the first source of successful work. However, planning is not just a matter of putting it down on paper, it is a matter of copying the curriculum without thinking, but it is a process of getting a deeper insight into the nature and laws of physical education.

Planning is the ability to draw the right conclusions based on an analysis of work. Regular analysis of lessons shows the teacher the number of repetitions of the necessary physical exercises, the sequence of exercises, the volume of learning tasks and the norm of pedagogical activity, without which it is impossible to improve planning. Thus, planning is the creation of methodologically based documents that shape the learning and larvalization system.

This issue should be in the focus of the whole pedagogical team in solving large-scale physical education tasks in the school. Entrust all physical education issues in the school only to the physical education teacher period is over.

The various measures of this work should be addressed regularly in pedagogical councils and trade union meetings. All educators should take an active part in the development of physical education in all classes, in improving the ability of students to work, to develop their organizational skills, to have a positive impact on their will and achievement. In order to consolidate and direct the work of all members of the teaching staff at the school, to further improve the physical education of students, the Ministry of Public Education and the State Sports Committee approved the "Regulations on physical education of secondary school students." "Approved. The charter provides a

brief description of school responsibilities, forms of physical activity, and other aspects of student physical education.

According to the charter, all members of the teaching staff are responsible for the physical education of students in the school, in addition to their profession.

Every team should take a positive approach to physical education and sports to improve students' ability to work, improve discipline, and reduce child morbidity. From a lesson on physical education for teachers To summarize the description of extracurricular activities, it is important to note the following:

- the use of all forms of physical education at work, the effective use of each specific situation in solving the tasks;
- Ensuring 100% student participation in extracurricular activities, involving the entire pedagogical community, parents, parenting organizations and, if necessary, foundations;
- the form and content of the activities will be determined;
- Gradually create a base for the organization of extracurricular activities, to intensify advocacy work in the classroom and at school;
- Relying on public organizations is the work of experienced teachers;
- duplication and uniformity have never been successful;
- Every extracurricular activity should be carefully considered and evaluated.

This is achieved through the acquisition of theoretical information in the school curriculum, the development of physical qualities and the study of physical activity, as well as the setting of a number of specific tasks. Therefore, the next planning technology can be considered as the correct setting of educational tasks.

In order to solve the set tasks, the teacher determines the system of pedagogical influence on students. It includes resources, methods, and working conditions. the operation can be performed with the active participation of students, as before. It is important to take into account the negative factors that may hinder the proper organization of the physical education process.

A step-by-step control plan is developed using a specially selected test to verify that the pedagogical process is going well. If the control results obtained at one stage of the liar correspond to the planned ones, then it can be concluded that all the operational plans are correct. If the plans are made in good faith, but the results of the inspection are slightly different than planned, it means that there are errors in the planning technology.

## References

1. Usmonkhodjayev Talat Saidovich, Oktamjon Tursunov, Hamid Abdullayevich Meliyev. Methodology of the theory of physical education Textbook for secondary special, vocational education institutions "Teacher" Publishing House. Tashkent – 2008
2. Norov, I. (2020). New Technologies in the Education System of the New Century. International Journal of Academic and Applied Research (IJAAR).
3. Aslanov, A. S., Subhonova, A. A., Avilova, K. H., & Saydullayeva, M. A. (2021). Impacts Of Language Learning On The Development Of Cognition. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(09), 56-59.

## ONG PATOLOGIYASINING PSIXOTIK TIPLARI

O'zbekiston milliy universiteti Jizzax filiali Psixologiya fakulteti o'qituvchisi:

**Otamurodov Rustam**

**talabalari: Jaloliddinova Sevinch**

**Isomiddinova Sarviniso**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada insonlarda uchraydigan ruhiy xastaliklarning yengil ko'rinishlari haqida qisman yoritilgan. Ong va tafakkur patologiyasi va uning belgilari haqida so'z boradi. Kasalliklarning turlari, yengil va og'ir kechishi mumkin bo'lgan holatlar ham yoritib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Obnubilyatsiya, Deliriya, Oneyroid, Amensiya, Depersonilizatsiya, Somnambulizm, Somnolensiya, Sinkope, Sopor, Koma.

Ong – psixik faoliyatning oliy shakli. Psixikani odamga xos bo'lgan oliy darjasi ongni tashkil etadi. Ong psixikaning uni yaxlit bir holga keltiruvchi shakli bo'lib kishining mehnat faoliyatida, boshqalar bilan tili yordamida muloqot qilish jarayonida shakllanishini ijtimoiy tarixiy shart-sharoitlari natijasi hisoblanadi.

Kishining ongi bizni tevarak atrofimizni o'rab turgan olam haqidagi bilimlar majmuasidan tarkib topdi.

Inson ongida ham turli xil buzilishlar, patalogik kasalliklar ham uchrab turadi. Ba'zi insonlar tashqi jihatdan, xatti-harakatlaridan es-hushli inson bo'lib ko'rinsada ong faoliyati buzilgan bo'lishi yoxud sezilmasligi mumkin. Umuman olganda ongning buzilishi psixotik va nopsixotik buzishlarga ajraladi.

Psixotik buzilish tiplariga **obnubilyatsiya, deliriya, oneyroid, amensiya, depersonilizatsiya**, es-hushning kirdi-chiqdi bo'lib qolishi, ambulator **avtomatizmlar** va **somnambulizm** kiradi.

Ongning nopsixotik buzilishlariga **somnolensiya, sinkope, sopor** va **koma** kiradi.

Ongning psixotik buzulishlari: Obnubilyatsiya (nubes -bulut degani)-ongning yengil darajada buzulishi. Ochiq osmonni bulut xira qilgani kabi go'yoki ong ham biroz xiralashadi, voqealikni idrok etish sustlashadi. Bu ong buzulishining dastlabki bosqichidir. Obnubilyatsiya holatida odam baland ovoz yoki tovyshda darrov o'ziga keladi.

Deliriya (lot. – aqldan ozmoq) – asosan ko'rish gallutsinatsiyalari yoki illuziya bilan namoyon bo'ladi. Bu holat qattiq isitmalaganda, zaharlanganda yoki spirtli ichimlik iste'mol qilganda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan patologik holat. Bu holatda

inson ko'ziga xar hil narsalar ko'rindi, inson bu ko'ringan narsalarni qo'li bilan haydashga urinadi, oldiga hech kimni yo'latmaydi. Deliriya holati asosan, ruhiy kasallarda, shizofreniyada ko'p uchrashi va surunkali davom etishi mumkin. Ko'rvuva eshituv gallutsinatsiyalarining m o'l-ko'l bo'lishi deliriy uchun juda xosdir. Gallutsinator tasawurlar, odatda, xatarli bo'ladi va qo'rquv bilan kechadi.

Oneyroid (uyqusimon, tushga o'xshash holat) ong ham gallutsinatsiyalarning ko'p kuzatilishi bilan tavsiflanadi. Bunda bemorlarga ular koinotda murakkab sarguzashtlar qilgandek, harbiy harakatlarda ishtirok etgandek tuyuladi. Ularning kechinmalari fantastik tusda bo'Madi. Deliriylardan farqli o'Maroq, oneyroidlarda bemorlar kamroq qo'zg'aluvchan, ko'pincha bo'shashgan holatda bo'Madilar. Es-hush uncha buzilmagan bo'Mib, ularda kechinmalar kamroq kuzatiladi, delirioz holatlardagi kabi uzuq-yuluq bo'Mmaydi.

Amensiya – o'zini va tevarak-atrofni anglashning to'la izdan chiqishi bilan namoyon bo'ladi. Bunda inson o'zini anglay olmaydi, atrofdagi inlarni tanimay qolishi yoki vaqt va makonni idrok eta olmasligi bilan namoyon bo'luvchi buzilish. Amensiya deliriyaga o'xshab ketsada, undan og'irroq holat hisoblanadi.

Depersonalizatsiya (shaxs parchalanishi) – o'z shaxsini idrok eta olmasligi bilan namoyon bo'luvchi patologik holatdir. Bunda bemorning o'z oyoqlari, qo'llari katta yoki kichikdek, egri-bugridek, yuz-ko'zlari noto'g'ri shakldagidek, ba'zan qo'llari o'ziniki emas, bir-biridan alohida harakat qilayotgandek tuyuladi. Bu holat shizofreniya, organic psixozlar va bosh miya o'ng yarim sharining zararlanishi uchun xos. Chunki bosh miyaning o'ng yarim shari o'z tanasini anglash uchun ham javob beradi.

Somnambulizm (lunatizm) – uyqu paytida kuzatiladigan ong buzilishlari. Asosan o'smirlarda uchraydi. Somnambulizmda qisman yoki chala uyg'oqlikni kuzatishimiz mumkin. Bu patalogiya ko'proq tunda kuzatiladi. Bunda bola uyg'onib tomga chiqib o'tin tashlashi, paxsa ustida, soy ustidagi quvurlardan yiqilmay o'tib ketishi mumkin. [1]. Odamning harakat sistemasi go'yo uyqidan uyg'onadi, es-hushi esa paydo bo'lgandek bo'ladi, aslida ular uyqusida o'rnidan turib yurganini eslab qolmaydilar. Berilgan savollarga va murojaatlarga ular javob qaytarmaydilar yoki uyg'onib ketadilar.

- Somnolensiya (uyqu bosishi) sog'lom odamlarda ham kuzatiladi. Masalan, kechasi bilan kasalxonada navbatda turib, ertasi kuni ham ishlaganda, vaqtida uxlab dam olmagan holatlarda, uzoq yo'lga mashina haydar chiqqanda va hokazo. Somnolensiya — bedorlik va uyqu orasidagi chegaradosh holatdir. Turli xil kasalliklarda somnolent holat ancha vaqt davom etishi (soatlab yoki bir necha kun)

mumkin. Bemor uyquchan bo‘lib qoladi. Uning mudroq ongida haqiqiy idrok etish va tushsimon kechinmalari chalkashib ketadi. Unda goho u yoki bu kechinmalar ustunlik qiladi. Bemor diqqatini biror narsaga qisqa vaqt jalb etsa, atrofidagi narsalarga diqqatini to‘plab qarasa, nimanidir anglashi mumkin, lekin bu narsalar xotirasida turmaydi. Bunday holat, ayniqsa, giyohvndlarda, spirtli ichimliklarni va uyqu dorisini ko‘p iste’mol qilganda kuzatiladi.

Sopor — ongning ancha chuqurroq buzilishi. Soporning uch xil darajasi farq qilinadi: 1) yengil sopor — bunda bemor yengil uyqu holatida bo‘ladi, savollarga javob berishi susayadi, uyqu kelayotganligidan noliydi, sekin va cho‘zib gapiradi; 2) o‘rta darajadagi sopor — bunda uyquchanlik biroz kuchayadi, ko‘z qorachig‘ining yorug‘likka ta’siri pasayadi, o‘z holicha gapirmaydi, oddiy savollarga kechikib bo‘lsa ham javob berishga intiladi, bemor ko‘zini yumib yotaveradi; 3) chuqur sopor — savollarga javob bermaydi yoki ancha kechikib bir xil tarzda javob beradi, ko‘z qorachig‘ining yorug‘likka ta’siri yanada susayadi, ahvoli qattiq uxbab yotgan odamni eslatadi.

Koma — ongning batamom buzilishi bo‘lib, bemor tashqi dunyodan butunlay uzilib qoladi. Bunday paytlarda bemor hech qanday tashqi ta’sirga (og‘riq, harorat) javob bermaydi. Ko‘z qorachig‘ining yorug‘likka javob reaksiyasi yo‘qolgan bo‘ladi, konyunktival va komeal reflekslar, pay reflekslari chaqirilmaydi. Mushaklar tonusi yo‘qoladi. Koma bir necha kundan bir necha oygacha davom etishi

Insonlarda biz bilmagan ong buzilishlari, hali to’liq o’rganilib chiqilmagan ong patologiyalari talaygina. Ularning ba’zilari ko‘z o’ngimizda tashqi jihatdan namoyon bo‘lsa, ba’zilarining bor ekanligini hatto sezmaymiz ham. Ba’zida bunday holatlarni kasallik sifatida qabul qilmaymiz ham. Inson hayoti davomida yashar ekan, turli ehtimol va tasodiflar tufayli psixik faoliyatida buzilishlar bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy muhitda, yon-atrofimizda bundayin kasallik belgilariga ko‘p duch kelamiz. Lekin bu ham kasallik ekanligi hech kimning hayoliga ham kelmaydi. Insonda xavf tug’diradigan kasalliklar juda ko‘p, eng muhimi insonda bunday kasallik qarshi ham jismoniy, ham psixologik jihatdan immunitet kerak. Agar jismoniy jihatdan immunitet bo’layu psixologik jihatdan bo’lmasa oxir oqibat, ham ruhiyatimizni, ham tanamizni kasallikka duchor qilamiz.

## Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. 1. Zarifboy Ibadullayev ”Tibbiyot psixologiyasi”darslik “Zamin Nashr”nashriyoti Toshkent-2019 yil
2. Zarifboy Ibodullayevning ”Asab va ruhiyat” ilmiy-ommabop risola “Zamin Nashr” Toshkent 2019-yil

**Emotsiya va hissiyot nazariyalari mulohazasi**  
**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti**  
**O‘qituvchisi: Ravshanov Olim**  
**talabalari: Isomiddinova Sarviniso**  
**Jaloliddinova Sevinch**

**Annotatsiya:** Jahon psixologiyasida — hissiyot bilan emotsiya terminlari (ayniqsa chet mamlakatlarda) bir xil ma‘noda ishlataladi, lekin ularni aynan bir xil holat deb tushunish mumkin emas. Bunday nuqson ommabop adabiyotlarda, chet ellarda chop etilgan darsliklarda aksariyat hollarda uchraydi. Odatda tashqi alomatlari yaqqol namoyon bo‘ladigan his-tuyg‘ularni ichki kechinmalarda ifodalanishdan iborat psixik jarayon yuzaga kelishining aniq shaklini emotsiya deb atash maqsadga muvofiq. Masalan, ranglarning o‘zgarishi, yuzlarning tabassumlanishi, lablarning titrashi, ko‘zlarning yarqirashi, kulgu, g‘amginlik, ikkilanish, sarosimalik va boshqalar emotsiyaning ifodasidir.

**Kalit so‘zlar:** emotsiya, psixik, dinamik stereotip, I.V.Pavlov, I.F. Gerbart, U.Djeyms,

Emotsiya haqida mulohazalarini tahlil qilishdan oldin insonlarda uchraydigan vatanparvarlik, javobgarlik, ma‘suliyat, vijdon mehr-oqibat, sevgi-muhabbat singari yuksak hislatlarni emotsiya tarkibiga kiritish g‘ayritabiyy hodisa hisoblanar edi. Ushbu hissiy kechinmalar o‘zining mohiyati, kuch-quvvati, davomiyligi, ta‘sirchanligi, yo‘nalganligi bilan bir-biridan keskin farq qilishlariga qaramay. Ularni emotsiya sifatida talqin qilish oddiy safsataga aylanib qolgan bo‘lar edi. Shu boisdan ularning o‘zaro eng muhim farqi shundaki, birisi ijtimoiy (hissiyot), ikkinchisi esa (emotsiya) individual, xususiy ahamiyat kasb etadi. Ta‘kidlab o‘tilgan mulohazalarga qaramasdan, hissiyot bilan emotsiyaning o‘zaro bir – biridan qat‘iy cheklab qo‘yish ham ba‘zi anglashilmovchilikni keltirib chiqarishi mumkin. Faoliyat, hulq-atvor, muomala sub‘ekti o‘zining shaxsi hamda jamiyati uchun ahamiyatli hisoblangan narsalar va hodisalarini aks ettiruvchi munosabati hissiyotda mujassamlashadi. Shaxsning individual hayoti va faoliyatiga aloqador omillar, qo‘zg‘ovchilar, turtkilarni ifodalovchi hamda kelib chiqishi instinktlar, shartsiz reflekslar, irsiy belgilar (ovqatlanish, jinsiy, himoyalanish, qo‘rqish va boshqalar) bilan bog‘liq sodda hissiy holatlar — emotsiyalar deyiladi. Emotsiyalar afaqat insonlarga, balki jonli rivojlangan mavjudotlarga ham taa‘luqli ruhiy (psixik) holatlar. Hayvonlardagi emotsiyalar o‘zgarishi murakkab bo‘lgan tabiiylik (irsiy) alomatlarga asoslanuvchi sodda tuzilishga egadir. Odam bilan hayvon emotsiyalari o‘zlarining mohiyati, tuzilishi, ta‘sirchanligi, jadalligi, sifati va shakli bilan hissiyotdan farqlanadi. Shuni aytib o‘tish sanalmish

hazrati insongagina xos, xolos, chunki empatik hamdardlik histuyg‘ular shaxsning mukammallik bosqichiga ko‘tarilishiga kafolat negizidir.

Odam tashqi muhitdagi turli-tuman narsa va hodisalarni idrok qilar ekan, hech vaqt bu narsalarga batamom befarq bo‘lmaydi. Odamning aks ettirish jarayoni doimo faol xarakterga egadir. Aks ettirish jarayoni quyidagilarni qamrab oladi shaxsning ehtiyojni qondirish imkoniyatiga egaligini; qondirishga yordam beradigan yoki qarshilik ko‘rsatadigan ob’ektlarga sub’ekt sifatida qatnashishi; uni harakat qildiruvchi bilimga intiltiruvchi munosabatlardir.

Chunki odam atrofidagi har turli narsalarni idrok qilib aks ettirar ekan, bu narsalarga nisbatan ma’lum munosabatda bo‘ladi. Masalan, bizga ayrim narsalar yoqsa, ya’ni kayfiyatimizni ko‘tarib yuborsa, boshqa bir narsalar yoqmaydi va kayfiyatimizni buzib, dilimizni xira qiladi. Ba’zi bir ovqatni odam juda ham yoqtiradi, boshqa bir ovqatni esa mutlaqo ko‘rgisi kelmaydi yoki ayrim odamlar bizga xush keladi yoki boshqa bir odamlar esa noxush keladi. Umuman odam atrofidagi hamma narsalarga nisbatan munosabatda bo‘ladi va uning munosabatlari ham aks ettiriladi.

Kishilar idrok qilayotgan, ko‘rayotgan, eshitayotgan, bajarayotgan, o‘ylayotgan, orzu qiladigan narsalarga befarq bo‘lmaydilar. Bir xil predmetlar, shaxslar, xarakterlar, voqealar bizni quvontiradi, boshqalari xafa qiladi yana boshqalari g‘azab, nafratimizni uyg‘otadi. Biz xavf ostida qolganimizda qo‘rquvni his qilamiz, dushman ustidan g‘alaba qozonish yoki qiyinchilikni engish zavq uyg‘otadi.

Emotsiya shaxsning voqelikka o‘z munosabatini his qilishidan kelib chiqadigan, uning ehtiyoj va qiziqishlari bilan bog‘liq bo‘lgan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalaridir. Keltirilgan ta’riflardan ko‘rinadiki, hissiyot tushunchasi emotsiyaga nisbatan kengroq tushuncha bo‘lib, shaxsning kundalik hayoti, turmush tarzidagi barcha jabhalarni qamrab oladi.

Hissiyotlar o‘zining yuzaga kelishi nuqtai nazaridan odamning ehtiyojlari, qiziqishlari va intilishlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, odamning organik ehtiyojlarini qondirishi bilan bog‘liq bo‘lgan hissiyotlar odamda rohatlanish, qanoatlanish tuyg‘usini yuzaga keltiradi. Organik hissiyotlarni qondira olmaslik odamning ruhini tushirib, kayfiyatini buzib, azoblanish, toqatsizlanish hissiga sabab bo‘ladi.

Demak, odam ma’lum hissiy holatni boshdan kechirayotgan paytda uning qon aylanish tizimi, nafas olish organlari nutq apparatlari ichki sekretsiya bezlari ham qatnashadi. Masalan, materialni yaxshi bilmaydigan talaba imtihon topshirayotganda terlab ketadi, tomog‘iga nimadir tiqilib, gapini gapira olmay qoladi. Odamda qattiq qo‘rqish paytida yuragi orqaga tortib ketdi, sovuq ter bosib ketdi kabi iboralarning

ishlatilishi hissiyot paytida odamning ichki a'zolarining ishtirok etishidan dalolat beradi.

Juda ko'p hissiy holatlar bosh miyaning yaqin po'stloq osti qismlarining oralig'i bilan ham bog'liqidir. Masalan, ko'rish tepaligi deb ataluvchi qism ayrim hislarni ifodalaydigan ixtiyorsiz harakatlarning markazi hisoblanadi. Odamda uchraydigan yuksak ma'naviy hissiyotlar ham o'zining nerv-fiziologik asosiga ega bo'lishi kerak (chunonchi intellektual, ahloqiy, estetik hissiyotlar). Bu jihatdan akademik I.P.Pavlovning dinamik streotip haqidagi ta'limoti juda katta ahamiyatga egadir. Bu haqda akademik I.P.Pavlov shunday deb yozgan edi: Menimcha, ko'pincha odatdagи turmush tartibining o'zgargan paytlarida odat bo'lib, qolgan birorta mashg'ulot yaqin kishidan judo bo'lganda, aqliy iztirob chog'ida kechiriladigan og'ir hissiyotlarning fiziologik asosi xuddi eski dinamik streotipning o'zgarishi, uning yo'qolishi va yangi dinamik streotipning qat'iylik bilan hosil bo'lishidan iborat bo'lsa kerak. Ayrim murakkab hissiyotlarning asosida dinamik streotipning yotishi yaqqol ko'rindi. Masalan, estetik hissiyotni oladigan bo'lsak, biron yoqimli ko'ydan lazzatlanish, yoki biron mashhur rassomning ishlagan ajoyib suratlarini tomosha qilib, rohatlanish estetik hissiyot hisoblanadi. Agar bu hissiyotlarning nerv-fiziologik asoslarini tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagilarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, bizga juda yoqadigan kuy boshqa millat odamiga yoqmasligi mumkin. Bunda ajablanishga hech qanday o'rin yo'q. Biz yoshlikdan boshlab mazkur kuyni bir necha yuz marotalab eshitib borishimiz natijasida ana shu kuya nisbatan deyarli buzib bo'lmaydigan nihoyatda murakkab dinamik streotip yuzaga keladi. Ana shuning uchun ayrim kuylar bizga yoqadi, ayrimlari esa yoqmaydi. Suratlar masalasiga kelganda shuni aytish kerakki, qadimgi klassik asarlar ularning ishlanish uslubi realligi bizni hayratda qoldirib zavq tug'diradi. Aksincha, hozirgi rassomlar tomonidan ishlangan rasmlar odamda qandaydir noxush hissiyotni tug'diradi. Demak, uzoq yillar davomida yuzaga keladigan dinamik streotipler ayrim murakkab hisni tashkil qiladi.

Shunday qilib, hissiyot vegetativ nerv tizimi orqali boshqariladigan ichki a'zo faoliyati bilan bog'liq bo'lsa ham bari bir bosh miya po'sti orqali idora qilinadi. Chunki akademik I.V.Pavlovning fikricha, odamning butun a'zoyi badanida bo'ladigan har qanday hodisalarning hammasini bosh miya po'sti qismidagi neyronlar idora qiladi. Ana shu jihatdan olganda hissiyotning nerv-fiziologik asosi bosh miya po'sti bilan bog'liq.

Uzoq vaqt davomida psixologlar hissiyotlar tabiatini haqidagi masalani echishga uringanlar. XVIII-XIX asrlarda ushbu muammo bo'yicha hech qaday nuqtai nazarlar mavjud emas edi. Keng tarqalgan qarashlardan hissiyotlarning organik ifodalanishlari

– bu psixik hodisalarining oqibati haqidagi dalil asosida paydo bo‘lgan intellektuallashtirish nuqtai nazaridir. Tasavvur fundamental psixologik dalil bo‘lib hisoblanadi, bizning hislarimiz esa turli tasavvurlar o‘rtasida o‘rnatiladigan aloqalarga mos keladi, va tasavvurlar o‘rtasidagi nizolika nisbatan ta’sirlanish sifatida ko‘rib chiqiladi, deb hisoblagan I.F. Gerbart, bu nazariyaning aniq ifodasini keltirdi. V. Vundt ham bu nazariyaning tarafdori edi. Shunday qilib, hissiyotlarni tadqiq qilishda ular haqidagi sub’ektiv, ya’ni, hissiyotlarning psixik tabiatini haqidagi fikrlar o‘z tasdig‘ini topdi, unga muvofiq psixik jarayonlar ma’lum organik o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Inson va hayvonlarda hissiyotlarning ifodalanishi asarini chop etdi. Uning fikriga ko‘ra, hayvon va odam hulq-atvori o‘rtasida umumiyliliklar mavjud. O‘z fikrini u hayvonlar va odamlar turli emotsional holatlarining tashqi ifodalanishini kuzatishdan kelib chiqqan holda, asoslab berdi. Ushbu kuzatishlardan olingan ma’lumotlar evolyusion nomini olgan hissiyotlar nazariyasiga qo‘yildi, bu ta’limotga asosan, hissiyotlar tirik mavjudotlar evolyusiyasi jarayonida hayotiy muhim bo‘lgan organizmning yashash sharoitlari va vaziyatlariga moslashishni ta’minlovchi moslashish mexanizmlari sifatida yuzaga keldi.

Hissiyotlarning hozirgi zamon tarixi 1884 yilda u. Djemsning hissiyot nima? maqolasining chop etilishidan boshlanadi. U. Djeyms va undan mustaqil ravishda g. Lange hissiyotlar nazariyasini ishlab chiqdilar, unga asosan, hissiyotlarning paydo bo‘lishi hosil qilinadigan tashqi ta’sirlar, ixtiyoriy harakat va tizimlar sohasidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Bu o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lgan hissiyotlar, emotsional kechinmalarining xuddi o‘zidir. Djems bo‘yicha, yig‘laganimiz sababli qayg‘ulimiz; qaltiraganimiz uchun qo‘rqamiz; kulganimiz uchun xursand bo‘lamiz. Bu hissiy xabar miyaga ta’sir ko‘rsatib, ma’lum xulq-atvorni o‘t oldiradi, teskari somatosensor va visserosensor afferentatsiya esa hissiyotni yuzaga keltirishini bildiradi.

## Xulosa

Inson hissiyotli kechinmalarida ikkinchi signal tizimi katta ahamiyatga ega, chunki kechinmalar tashqi muhitning bevosita ta’sirlari bilan birgalikda so‘zlar, fikrlar orqali ham yuzaga kelishi mumkin. Xuddi shunday, o‘qib chiqilgan hikoya, tomosha qilingan film mos bo‘lgan emotsional holatni yuzaga keltirishi mumkin. Hozirda ikkinchi signal tizimi intellektual, axloqiy, estetik yuksak insoniy hissiyotlarning fiziologik asosi bo‘lib sanaladi.

Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, hozirgi vaqtgacha hissiyotlar tabiatiga nisbatan yagona nuqtai nazar mavjud emas. Hissiyotlarni o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar hozirda ham o‘tkazilib kelinmoqda. Hozirda to‘plangan tajribaviy va nazariy material hissiyotlar tabiatining ikkilanganligidan dalolat beradi. Bir tomondan, hissiyotlar – turli

psixik hodisalar, shuningdek, kognitiv jarayonlar, inson qadriyatları tizimi tuzilmasining xususiyatlari va boshqalar kabi sub'ektiv omillar hisoblanadi. Ikkinchi tomondan, hissiyotlar individning fiziologik xususiyatlari bilan belgilanadi. Hissiyotlar ma'lum seskantiruvchi ta'siri natijasida paydo bo'ladi, bu esa inson moslashishi va hulq-atvorining boshqarish mexanizmlari ifodasining xuddi o'zginasidir. Inson kayfiyati, affektlari, hislari va ehtiroslari yig'indisi uning emotSIONAL hayotini va emotSIONALLIK kabi individual sifatni tashkil etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Emotsiya haqida tushuncha. Hissiy xolatlarning nerv-fiziologik asoslari.
2. Psixik holat turlari. Stress tushunchasi va psixik zo'riqish va uni boshqarish.
3. Frustratsiya va bezovtalik emotSIONAL holat sifatida.

## Elektron tijoratda moliyaviy xizmatlarning raqamli transformatsiyasi (Digital Transformation)

**Qodirova Ozoda Raxmuddin qizi**

**DTPI iqtisodiyot yo'nalishi talabasi**

**E-mail: [ozodaraxmuddinovna@gmail.com](mailto:ozodaraxmuddinovna@gmail.com)**

**Ubaydullayeva Shohista Hidoyatillo qizi**

**Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti o'simliklar va**

**qishloq xo`jaligi mahsulotlari**

**karantini yo`nalishi talabasi**

**E-mail: [shohista8108@gmail.com](mailto:shohista8108@gmail.com)**

### **Annotatsiya**

Moliyaviy investitsiyalar moliyaviy bozorlarning samarador ishlashi va raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonida juda katta ahamiyatga egadir. Raqamli iqtisodiyot davlat organlarining, kompaniyalarning, tadbirkorlarning va fuqarolarning ish uslublarini o'zgartirib yuborib, ularga turli xildagi vazifalarni bajarishni ancha yengillashtiradi. Raqamli innovatsiyalar raqamli iqtisodiyotning va jamiyatning rivojlanishiga turki beradi hamda yangi texnologiyalarni turli yo`nalishlarda ishlatishga imkon beradi va bu orqali iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasiga olib keladi.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy investitsiyalar, raqamli iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, bank, internet-banking, federativ model, ajratigan servislar modeli, kompetentsiyalar strategik markazlarini yaratish modeli, raqamli operatsion model, kontraktlardagi innovatsiyalar,

**Kirish.** Yuqori darajadagi tashkiliy va insoniy kapitalga ega bo'lgan kompaniyalar katta ehtimollik bilan raqamli texnologiyalarga bo'lgan investitsiyalardan katta miqdorda foyda olishlari mumkin. Bunday kompaniyalar yetarli darajada moslashuvchan bo'lib, o'z investitsiyalaridan keladigan foydani maksimallashtira oladilar, sotuvlarni ko'paytirish uchun imkoniyatlari mavjud, jarayonlarni qayta tashkil eta oladilar hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshira oladilar. Bunday shart-sharoitlarda moliyaviy investitsiyalar raqamli iqtisodiyotga o'tishning asosiy drayveri bo'lib hisoblanadilar.

Raqamli transformatsiya (digital transformation) jarayoni deb, raqamli texnologiyalarni mavjud biznes-modellarni mukammallashtirish uchun ishlatishga hamda uning vositasida faoliyat samaradorligini oshirishga aytildi. Bu jarayon doimiy asosda innovatsion texnologiyalarni tadbiq qilishni ko'zda tutib, butun iqtisodiyotning

to'laqonli raqamli transformatsiyasiga olib keladi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish banklarning, davlat organlarining va potentsial mijozlarning o'zaro munosabatini mukammallashtiradi. Raqamli transformatsiya bank hizmatlari ko'rsatishning zamonaviy usullarining barcha jabhalarda ishlatishni ko'zda tutadi. Natijada banklarning filiallari soni kamayadi, bir qancha xizmatlar, shu jumldan, kredit berish va vositalarni investitsiyalash on-layn servislar ko'rinishiga o'tadi. Bank sektorining bunday transformatsiyasi o'zining kamchiliklariga ham ega – oldingi avlod raqamli iqtisodiyot tushunchalarini o'zlashtirishga qiynaladi va uning uchun ish yuritishning an'anaviy usullaridan voz kechish unchalik yoqmaydi, banklarga esa mobil platformalarda ishlaydigan to'liq onlaynga o'tish juda ham foydali bir tadbir bo'ladi. Misol sifatida Britaniyadagi mijozlar bilan ishlash uchun mo'ljallangan moddiy bo'limgari yo'q bo'lgan AtomBank ni keltirish mumkin. Unda barcha operatsiyalar mobil ilovalar yordamida amalga oshiriladi.

Rossiyada ham onlayn bankingning rivojlanishi bo'yicha bir qancha misollar keltirish mumkin. Masalan, fizik shaxslarga xizmat ko'rsatish bo'yicha innovatsion takliflarni AO "Tinkoff Bank" da ko'rish mumkin. Internet-bankingga o'tmasdan oldin mijozlar bazasining ko'payishi yiliga 500 mingni tashkil qilgan bo'lsa, hozir ushbu ko'rsatgich 1,0-1,8 millionni tashkil qiladi, ya'ni, yangi mijozlar soni 2-3 martaga ko'paygan. Huquqiy shaxslar uchun raqamli texnologiyalarning ishlatilishiga misol qilib, AO "Modulbank" ni keltirishimiz mumkin. Unda zamonaviy onlayn banking tizimi ishga tushganidan so'ng, mijozlar soni 1,5 barobarga ko'paygan. Raqamli texnologiyalarning yutuqlarini tadbiq etish bank xizmatlari butun sutka, oy va yil davomida to'xtovsiz amalaga oshirilishi tufayli bankdagi mijozlar sonini oshirishga olib keladi.

Bank sektorini raqamli transformatsiya qilish jarayoni quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: mijozlar bilan ishlash tajribasini tahlil qilish, ko'rsatilayotgan xizmat va mahsulotlarning raqamlashtirilishi va tashkilotning ichki jarayonlarini transformatsiya qilish. Raqamli transformatsiya jarayoni mijozlar bilan ishlash tajribasini to'laqonli o'rganish, mavjud talablarni tahlil qilish va yangi talablarni aniqlash orqali ta'minlanadi. Banklar innovatsion rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi uning xizmatlaridan foydalanuvchilardir, chunki ular o'z talablari vositasida zamonaviy bank xizmatlari va mahsulotlariga bo'lgan real talabni yaratadilar. Mijozlar banklar bilan muloqot tajribalarini umumlashtirib, u yoki bu xizmatni qanchalik qulay va oson olganliklari bilan bank ishini baholaydilar. Shuninguchun bank sektorimutahassislarini mijozlar bilan ishlash tajribasini muttasil ravishda o'rganishlari va mavjud kamchiliklarni tezlik bilan bartaraf etishlari talab

qilinadi. Oldingi davrlarda banklar faoliyatining samaradorligi mahsulot va tovarlar sotishning maqsadli ko'rsatgichlari qanday bo'lgani orqali baholangan. Ammo raqamli iqtisodiyot davrida banklar yangi sharoitarga, ya'ni, mijozlarga yo'naltirilganlik va ularning talablariga moslashishlari talab etiladi. Hozirgi kunda milliardlab mijozlarga mobil telefonlar orqali xizmat ko'rsatilishi mumkin. Bu esa banklarni raqobatbardoshlilikni ta'minlash maqsadida ishlatilayotgan raqamli texnologiyalarni doimiy ravishda mukammallashtirishga majbur qiladi. Barclays banki onlayn bankingni tadbiq etgan birinchi banklardan biri bo'lgan: natijada endi mijozlar bank filiallariga bir oyda bir marta kelayaptilar, shu vaqtning o'zida mobil bank hizmatlaridan oyiga 18 marta foydalanmoqdalar. Banklarning ichki jarayonlarini transformatsiya qilish ham bank sektorining rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Mijozlarga yo'naltirilgan raqamli texnologiyalarning tadbiq qilinishi bilan bir qatorda, boshqaruv, rahbarlik va nazorat funktsiyalarini ham yanada mukammallashtirish lozim. Banklarning to'laqonli raqamli transformatsiyasini amalga oshirish yo'lidagi asosiy to'siqlardan biri hizmat ko'rsatuvchi personalda raqamli iqtisodiyot sharoitlarida ishslash ko'nikmalarining yo'qligidir. Mijozlar bilan ishslashni mukammallashtirishda CRM (Customer Relationship Management) tizimi banklar raqamli transformatsiyasini amalga oshirishning muhim elementlaridan biridir. Banklarning raqamli transformatsiyasi raqamli strategiyani ishlab chiqish va qo'llash bilan bog'liq kompleks yondoshuvni talab qiladi. Transformatsiya moliya-kredit faoliyatini yuritishning barcha jihatlarini, shu jumladan, bankning boshqaruv mexanizmini raqamlashtirishni ham qamrab oladi va samaradorlikni maksimal ravishda oshirishga yordam beradi. Raqamli strategiya quyidagi to'rt asosiy masalani hal qilishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak:

- Raqamli texnologiyalarni ish faoliyatiga tadbiq qilish;
- Xizmatlar bahosi yaratilish jarayonining transformatsiyasi;
- Raqamlashtirishning moliyaviy aspekti;
- Tashkiliy tuzilmaning o'zgarishi.

Raqamli strategyaning muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirilishi uchun yuqorida sanab o'tilgan rivojlanish yo'nalishlarini koordinatsiya qilish talab etiladi. Bu esa ko'p jihatdan bankning operatsion modeli qandayligiga bog'liq bo'ladi. Ammo barcha banklar uchun yagona operatsion model mavjud emas, shuning uchun bankning qandayligiga bog'liq ravishda quyidagi raqamli strategyalardan foydalanish mumkin:

1. Federativ model – bunday operatsion modelni raqamli transformatsiyani astasekin amalga oshiradigan yirik banklarda qo'llash mumkin bo'lib, unda raqamlashtirish faoliyat yo'nalishlari bo'yicha amalga oshiriladi. Bunda ba'zi bir tashkiliy bo'limlar raqamli texnologiyalarga bo'lgan harajatlar oqimini mustaqil ravishda nazorat qilib

turib va xodimlarga yangi ko'nikmalarni singdirigan holda raqamli strategiyani amalga oshirishda ishtirok etadilar. Lekin boshqa bo'limlar raqamli transformatsiyada ishtirok etmasliklari ham mumkin. Bunda vaqt o'tishi bilan barcha xodimlar raqamli iqtisodiyotning afzalliklarni ijobjiy baholagan holda bu jarayonda ishtirok etishga harakat qila boshlaydilar. Bunday operatsion modelga misol bo'lib, elektron hujjat aylanishiga o'tishni ko'rsatish mumkin. Ya'ni bu modelda yangiliklar bir bo'limdan boshqasiga o'tib boradi va vaqt o'tishi bilan bank faoliyatiga doimiy asosda tadbiqu qilinadi.

2. Ajratigan servislar modeli. Firma raqamli transformatsiyaning muhimligini anglaganidan so'ng va raqamli strategiyani amalga oshirish bo'yicha birinchi qadamlarni qo'yanidan keyin, kattaroq bo'lgan banklarda ajratilgan servislar modelidan foydalanish mumkin bo'ladi. Bunda bir qancha o'xshash funktsiyalar bitta markazlashgan bo'limga beriladi. U yoki bu operatsiyalarni bajarishga mas'ul bo'lgan bo'lim bo'linadigan servislar Markazi bo'lib qoladi. Bunday model bir qancha funktsiyalar tashqi kontragentlar tomonidan ta'minlab beriladigan autsorsingning analogi bo'lib qoladi. Bunday operatsion model yaratishning asosiy maqsadi - bank ichidagi amallar moslashuv darajasiining oshirilishi (ratsionalizatsiyalash) hamda mavjud biznes-jarayonlarning standart qaytarilib turuvchi operatsiyalar yo'qligi tufayli optimallashtirilishi hamda ba'zi bir bank operatsiyalariga bo'lgan harajatlarning kamayishidir.

3. Kompetentsiyalar strategik markazlarini yaratish modeli - Raqamli transformatsiya sharoitlarida bank operatsion modeli rivojlanishining keyingi bosqichi tashkiliy birlik sifatidagi kompetentsiya markazlarini tashkil qilishdir. Bunday markazlar ma'lumot yig'ish va tahlil qilish asosida information tizimlarni hamda biznes jarayonlarni nazorat qiladilar va ularni maksimal samarador ishlatish usullarini topadilar. Tashkiliy tuzilmaning bunday elementi raqamli strategiya yaratish bo'yicha harakatlarni koordinatsiya qiladi, bozordagi tendentsiyalarni bashorat qiladi va raqobatbardoshlilikni oshirish maqsadida bankka takliflar tayyorlaydilar.

4. Raqamli operatsion model – Bu model raqamli transformatsiyani tugallash arafasida bo'lgan banklarda qo'llash uchun mo'ljallangan. Modelni bir tarmoqli tashkilotlar uchungina ishlatish mumkin. Bankning faoliyatida raqamli platformaning mavjudligi raqamli operatsion modelni ishlatish uchun asos bo'la oladi. Hozirgi davrda bunday model mobil to'lov tizimlari hizmatlari taqdim etadigan kompaniyalarda yoki zamonaviy on-layn bankingdan foydalanadigan banklarda qo'llaniladi. Bank sektori operatsion modellarning hozirgi rivojlanish bosqichida ular huddi shu bosqichga intilayaptilar. Ko'pchilik mijozlar esa turli hildagi bank hizmatlaridan foydalanish

uchun bank filialiga borib o'tirmasdan, raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish ma'qulligini bilab bormoqdalar.

Moliyaviy sektorning rivojlanishi niqtai-nazaridan raqamli transformatsiya yangi raqamlashtirilgan ish muhitini yaratish natijasida moliyaviy faoliyat yuritishni mukammallashtirishdir. Bank jarayonlarini raqamlashtirish uchun raqamli texnologiyalarni qo'llash asosida professional masalalarni hal qila oladigan malakali kadrlar va yangi mansablar talab qilinadi. Bu mansablar qatoriga raqamli texnologiyalar bo'yicha direktor va innovatsion rivojlanish bo'yicha director lavozimlarini kiritish mumkin. Ekspertlarning aytishlaricha, bank sektorining raqamli transformatsiyasini amalga oshirish uchun uch xil yondoshuvdan foydalanish mumkin: Jahondagi 26% banklar foydalanadigan yondoshuv raqamli texnologiyalarni to'liq raqamli transformatsiya sifatida emas, balki alohida loyiha sifatida tadbiq qilishni ko'zda tutadi – bu brinchi yondoshuvdir. Bu holda raqamli transformatsiya uzoq muddatli rejalashtirish asosida va pilot liyohalarni amalga oshirgan holatda qadam ba qadam tadbiq qilinadi. Ikkinci yondoshuv raqamli iqtisodiyotning talablarini hisobga olgan holda yaratilgan kompaniya filialini tashkil qilish orqali amalga oshiriladi. Raqamli transformatsiya usuli ancha ommabop hisoblanadi va u 42% banklar tomonidan ishlatiladi. Bu yondoshuvning afzalliklari uzoq muddatli perspektivada mijozlarning talablariga moslashganlik, tashkilot ichida turli yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislar (dasturchilar, information texnologiya mutaxassislari, analitiklar va marketologlar)ni o'z ichiga olgan komandalar tashkil qilish hisoblanadi. Bular natijasida tashkiliy tuzilmaning yuqori darajadagi moslashuvchanligiga erishiladi hamda yangi faoliya yo'nalishlarini testlashtirish imkoniyati yaratiladi. Raqamli trnsformatsiyaga bo'lgan uchinchi yondoshuv raqamli texnologiyalarni tashkilotning asosiy boyligi deb hisoblashga asoslangan. Bu usul boshqa yondoshuvlar bilan birgalikda ishlatilishi mumkin, ammo u bankdagi barcha ichki va tashqi jarayonlarning to'liq raqamli transformatsiyasi strategiyasi asosida amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtida ushbu usul vositasida raqamli transformatsiyani amalga oshirish 32% banklar tomonidan amalga oshiriladi. Hozirgi davrda raqamli transformatsiya jarayoni banklarning raqobatbardoshliligini saqlab turish uchun kerakli bo'lgan bir muhim tadbir hisoblanadi va bugungi kunda bank operatsiyalarning uchdan bir qismi raqamli texnologiyalar vositasida amalga oshirilayapti. Bunday holat raqamli innovatsion texnologiyalarning afzalliklarini tushuna boshlagan jamiyatning talablari tufayli ham yuzaga kelayapti. Shuni ham aytish lozimki, raqamli transformatsiya jarayoni konkret bankning xususiyatlar va talablarinin hisobga olgan holdagi aniq strategiyaga asoslangan bo'lishi kerak. Shundagina amalga oshirilgan raqamli strategiya bank

sektorining samaradorligini oshirish va moliya-kredit tashkilotlarida zamonaviy texnologiyalarni qo'llashga imkon beradi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, jahon bozoridagi radikal o'zgarishlarni hisobga olib, kompaniyalarga qisqa va o'rta muddatli perspektivalarda quyidagilarni nazarda tutish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- Global raqamli iqtisodiyot ancha yetilib qoldi;
- Ko'pchilik tarmoqlr raqamli transformatsiya jarayonini boshdan kechirayapti;
- Kompaniyalar orasidagi raqamli farq borgan sari kamayib borayapti;
- Rivojlangan bozorlarda iste'molchi markaziy o'rinni egallab turibdi;
- Biznes giper tezlikka o'tib borayapti;
- Raqamli iqtisodiyotni qamrab olish uchun firmalar qayta tashkil etilayaptilar;
- Innovatsiyalarning tadbiq qilinishi hayotiy muhim ahamiyatga ega bo'lib borayapti;

Innovatsion risklarni baholash va ularni boshqarish muvaffaqiyatga erishishning asosiy faktorlari bo'lib bormoqda. Raqamli innovatsiyalar raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini stimulyatsiya qiladi va bir qancha sohalarda yangiliklarning tadbiq qilinishiga imkon berish natijasida iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasiga olib keladi. Halqaro consulting kompaniyasi The Boston Consulting Group2 mutaxassislarining ta'kidlashlaricha, raqamli transformatsiya asosida amalga oshiriladigan raqamli iqtisodiyot innovatsion raqamli texnologiyalarining va on-layn texnologiyalarning iqtisodiy tizim barcha ishtirokchilari tomonidan ishlatilishidir. Juhon banki mutaxassislarining aytishlariga ko'ra esa raqamli iqtisodiyot tezkorlik bilan rivojlanadigan iqtisodiyotning yangi paradigmadir. Raqamli transformatsiya asosida yuzaga keladigan raqamli texnologiyalar bizning hayot tarzimizni, ish faoliyatimizni, iste'molni va nabsulot hamda hizmatlar ishlab chiqarishni tubdan o'zgartirib yuboradi. Buboradaengmuhimtentsiyalari, bulutlihisoblashlar, blokcheyn texnologiyalar, buyumlar internet, robototexnoka, 3D-texnologiyalar, Big Data, sun'iy intellect, biotexnologiya, virtual voqe'lik, qo'shimcha reallik, ijtimoiy tarmoqlar, simsiz aloqa va mashinaviy ta'limdir. Bularning barchasi nibrashtirgan holda aqli texnologiyalar (Smart everything) sifatida birlashtirish mumkin. Misol sifatida aqli uylarni, aqllli tarmoqlarni, intellectual biznes-jarayonlarni, optimal energetikani, aqli davlat boshqaruvi tizimini keltirish mumkin. Ma'lumotlarning yangi analitikasi Big Data deb nomlangan katta ma'lumotlar to'plamini qayta ishslash va tahlil qilishga imkon beradi. Bu jarayonlarning barchasi raqamli transformatsiya bilan bog'liq bo'lgan intellectual tarmoqlarning qurilish bloklarini tashkil qiladi. XelR. Verien raqamli texnologiyalar yordamida iqtisodiy faoliyatning transformatsiyasini amalga oshirishning beshta asosiy usulini taklif qildi:

Ma'lumotlar yig'ish – firmalar mijozlarning hoxish-istaklari haqidagi katta hajmdagi ma'lumotlarni yig'adilar va bu ma'lumotlarni faoliyatni yaxshilash, mijozlarning o'zini tutishini bashoratlash va ko'rsatilayotgan hizmatlar sifatini yaxshilash uchun ishlata dilar.

Personallashtirish va kustomizatsiya qilish – bu firmalarning individual mahsulotlar va hizmatlar taklif qila olish qobiliyti ma'nosida tushuniladi. Mijozlar esa o'z navbatida haridlar tarixini bilish, billing bo'yicha ma'lumotlar olish, yetkazib berish manzillari bilish kabi imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

Doimiy rivojlanish va tajribalar o'tkazish. Firmalar katta ma'lumotlar bazalaridan foydalanish, tizimlarni avtomatlashtirish bo'yicha kuchli bashoratlash algpritmarini ishlatish va zahiralarni taqsimlash hamda ishlab chiqarishda qarorlar qabul qilish kabi imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

## Foydalaniłgan adabiyotlar

Jeremy Clark. Bitcoin, blockchain, cryptocurrency, cryptology (A detailed and technical study of Bitcoin, blockchain, cryptocurrency, and cryptology); 499 стр. 2016

Jacob William. Blockchain: The Simple Guide To Everything You Need To Know. 2016, 69 pages.

Аюпов Р.Х., Балтабаева Г.Р. Узбекистонда инновацион иктисодиётни шакллантириш муаммолари ва ечимлари. – Т:“Иктисад-молия” нашриёти, 2015, 144 бет.

Балтабаева Г.Р. ва бошкалар. Узбекистонда электрон бизнеснинг ривожланиш истиқболлари. –Т: «Формат полиграф» нашриёти, 2016, 205 бет.

[www.wikipedia.ru](http://www.wikipedia.ru) – veb sayti

[www.alpari.com](http://www.alpari.com) – xalqaro miqyosdagi moliyaviy kompaniya sayti

[www.coinspot.io/analysis](http://www.coinspot.io/analysis) – veb sayti

[www.springer.com](http://www.springer.com) – veb sayti

<https://bitcoin.org> – Bitkoinning rasmiy sayti

[https://bitcoin.org/files/bitcoin-paper/bitcoin\\_ru.pdf](https://bitcoin.org/files/bitcoin-paper/bitcoin_ru.pdf)-Satoshi Nakamotonining original maqolasi

## YANGI TASHKIL ETILGAN LENIN YO'LI (QIZIRIQ) RAYONINING KADRLAR BILAN TA'MINLANISHI

**Qulboshev Sirojiddin Jumayevich**

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

[s.qulboshev2710@umail.uz](mailto:s.qulboshev2710@umail.uz)

+998938959092

Sovet hukumatining respublikada paxtachilikni rivojlantirish maqsadida amalga oshirgan agrar siyosati yangi yerlarni o'zlashtirish hisobiga paxta maydonlari sathini kengaytirish va shu asosda paxtadan mo'l hosil olishni strategik maqsad qilib oldi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun Mirzacho'l, Markaziy Farg'on, Qarshi va Surxon-Sherobod cho'llarini o'zlashtirish va bu yerlarni paxta etishtiriladigan yirik xom ashyo bazalariga aylantirish va shu orqali paxtaga bo'lgan talabini qondirish vazifasini ko'zlagan edi.

Yerlarning jadal sur'atlar bilan o'zlashtirilishi tufayli Qiziriq cho'lida ham ma'muriy rayon tashkil etish uchun yetarli shart-sharoitlar vujudga keldi. O'zbekiston Respublikasi hukumatining 1975-yil 6-martdagি qaroriga muvofiq o'zlashtirilgan cho'l hududida Lenin yo'li (hozirgi Qiziriq) rayoni tashkil etildi [1]. O'sha paytda rayonda 44 ming hektar yer maydoni bo'lib, 26 ming aholi yashar edi. Bundan tashqari 1 ta markaziy kasalxona, 20 ta davolash punktlari, 21 ta mакtab, 6 ta kutubxona bor edi. Rayon tarkibiga 6 ta davlat sovxoз kirar edi [2].

Lenin yo'li rayonini tashkil etilishida Normo'min Turopov, Abdusattor Hayitov, A.Antones, E.Tursunov, Oytoshxon G'iyoсova, Halil Isayev, Shaydulla Jumanazarov, Qarshi Choriyev, Sa'dulla Zulfiqorov, Abdurahmat Musayev, Rustam Omonov, Mamarajab Normo'minov, Muxtor Qilichev, Mamlakat Begmatova, Mamatqobil Ahmedov, Mirza Gulboyev, Muhabbatxon Toshxo'jayeva, Xudoynazar Umarov, Pari Nosirova, Jovli Sattorov kabi insonlarning xizmati katta bo'ldi.

Lenin yo'li rayoni tashkil etilgan paytda cho'lни obod qiluvchi paxtakorlar, mexanizator va quruvchilarga, barcha mutaxassislarga og'ir sharoitlarda ishlashga va yashashga to'g'ri keldi.

1976-yili cho'lida yangi tashkil etilgan Lenin rayoniga Ro'zi Samanovich Ergashev birinchi kotib bo'lib saylandi [3].

Tuzilgan rayonning obod bo'lishi va yangi yerlarning o'zlashtirilishida Xurram Toshmirov, Xayrulla Qiyomov, Parda Muhammadiyev, Normurod Norqobilov, Eshpo'lat Ergashev, Qulto'ra Qo'zimurodov va Hakim Eshonov kabi xo'jalik

rahbarlarining xizmatlari katta bo‘ldi. Jumladan, rayonning Yo‘ldosh Oxunboboyev nomli 7-sovxozi obod qilishda To‘xta Haydarov, Oqboy Yo‘ldoshev, Muzaffar Umarov, Rahmon Ashurov, Norqobil Orziqulov, Ergash Saidov, Xurram Karimov, Chori Xo‘janazarov, Mamatali Umirov, Normo‘min Kamolov, Xudoyqul Nazarov singari paxtakor, chorvador va boshqa kasb egalarining samarali mehnati muhim o‘rin tutdi [4].

Lenin yo‘li rayonining 6-sovxozi rahbarlik qilgan Normurod Norqobilov birinchi navbatda diqqat e’tiborini aholining turmush sharoitiga qaratdi. Xo‘jalikning 14 ta bo‘limning har birida barcha qulayliklarga ega bo‘lgan dala shiyponlari qurildi, paxtakorlarning yozning issiq kunlarida dam olishlari va tushlik qilishlari uchun sharoitlar yaratib berdi [5].

Bandixon bog‘dorchilik tajriba xo‘jaligi yaylov dashtda tashkil etilgan bo‘lishiga qaramay, tez orada uning dovrug‘i mamlakatga yoyildi. Olim-agronom Qulto‘ra Qo‘zimurodovning say-harakati bilan xo‘jalikda eng sara loyihalar asosida chiroyli uyojlar, uch qavatli maktab va boshqa inshoatlar barpo etildi. Eng muhimi barpo etilgan cho‘ldagi bog‘lardan uchinchi yildayoq uzum, olma, o‘rik, anor, xurmo, bodom, qaroli va boshqa har xil mevali daraxtlardan hosil olina boshlandi. “Qiziriqning bog‘i erami” nomini olgan xo‘jalik rahbari Qulto‘ra Qo‘zimurodov umrining oxirigacha halol mehnat qilib, “El-yurt hurmati” ordeniga sazovor bo‘ldi.

Rayon tashkil etilganidan keyin chorvachilikni rivojlantirishga ham katta e’tibor berildi. Barcha xo‘jaliklarda yirik chorvachilik komplekslari qurildi. G‘affor Mo‘minov, Qo‘ziboy Amirov hamda Sayfi Salayev kabi tajribali chorvadorlar bu sohaning rivojlanishida samarali mehnat qildilar. Ayniqsa, rayonda chorvachilikning yuksalishida o‘z kasbining bilimdoni Qo‘ziboy Amirovning hissasi katta bo‘ldi. Uning sa’y-harakati bilan xo‘jalik respublikada tanilgan chorvachilik xo‘jaligiga aylandi. Xo‘jalikda madaniy ishlarni rivoj toptirdi. “Qo‘ng‘iroq” folklor-etnografik dastasi tashkil etilib, tez orada uning dovrug‘i respublika bo‘ylab yoyildi [6].

Chorvachilikni rivojlantirishga yosh mutaxassislar va shu soha olimlari ham jalb qilindi. Parda Ashurov, Nosirxon Daminov, Chorshanbi Tog‘aymurodov va O‘rol Aliyarov kabi yosh mutaxassislar, Boboqul Abilov, Erkin Arabov, Qarshi Choriyev kabi ilmiy darajali olimlar shular jumlasidandir.

Rayon tashkil etilganidan keyin ma’naviy-ma’rifiy ishlarga eng obro‘li, bilimli, tashkilotchi kishilar jalb etilgan edi. Egam Yo‘ldoshev, To‘xtamish Aliqulov, Yusuf Norqulov, Muhiddin Abdullayev, Hasan Mardonov, Juma Qosimov, Xurram Karimov, Jo‘raqul Normo‘minov, Rahmatulla Haydarov, Yarash Jovliev, Hakim Norboyev, Jovli Xursanov, Tursunpo‘lat Allamurodov, Sojida Po‘latova, Muxabbat Toshxo‘jayeva,

Muxabbat Dautova, Sa'dulla To'xtamishov kabi ma'rifatchi - ziyyolilar ta'lim-tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy va targ'ibot-tashviqot ishlarida peshqadamlardan bo'ldilar.

Rayon sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, madaniyat va sport, savdo va umumiyligi ovqatlanish, bank tizimi, kommunal xizmat va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy sohalar ham rivojlanib bordi. 1975-yilda rayon markaziy shifoxonasi tashkil etildi va aholiga malakali tibbiy xizmat ko'rsata boshladi. Fani Yodgorov, Aziz Akbarov, Dilorom Yunusova, Xoliyor Mengliboyev, Yo'ldosh Qilichov, Usmon Madiyev, Sofiya Haydarova, Yo'ldosh Allaberdiyev, Qahramon Odinayev, Abdumomin Erbo'tayev, Shaydulla Turdiyev, Xolmamat Rahmatov, X.Obidov, A.Mamatqulov, G.Nigmatulina, M.Ro'ziyev hamda Y.Xidirov kabi ko'plab shifokorlar el-yurt salomatligi yo'lida o'z bilim va tajribalarini ayamadilar.

Rayonda paxta tozalash zavodining qurilib ishga tushirilishida shu sohaning iqtidorli muhandisi Abdumurod Usanovning xizmatlari katta bo'ldi. U bosh muhandisi Bahriiddin Jo'rayev bilan hamkorlikda dastlabki ishchi kadrlarni tayyorlab, barcha sexlarning to'la quvvat bilan ishlashini ta'minladi. Sherali Tursunov, Normamat Bo'ronov, Menglimamat Rahimov, Qulmurod Shernayev, Abduvohid Qilichev va Dilorom Yunusova singari ishchi va mutaxassislar korxonaning rivojlanishida o'z hissalarini qo'shdilar [7].

Xulosa qilib aytganda, Qiziriq rayonining tashkil topishi va uning barqaror rivojlanib obod bo'lishida yuqorida biz tilga olib o'tgan fidoyi insonlarning xizmatlari katta bo'ldi. Cho'lni o'zlashtirish bu yerda ekin maydonlarini kengaytirish infratuzilmani shakllantirish bularning barchasi juda katta mehnatni talab qildi. Xalqning tinimsiz mehnati va ko'plab moddiy resurslarni sarflash hisobiga amalga oshirildi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Surxondaryo viloyat davlat arxivsi 312-fond, 1-ro'yxat, 12-ish, 143-varaq
2. Lenin bayrog'i gazetasi. 1975-yil 24-aprel
3. Surxondaryo viloyat davlat arxivsi 474-fond, 1-ro'yxat, 98-ish, 74-varaq
4. Lenin bayrog'i. 1975-yil mart.
5. Народное хозяйство Узбекской ССР. Статистический ежегодник. 1975.
6. Surxondaryo viloyat davlat arxivsi 474-fond, 1-ro'yxat, 45-ish, 90-varaq
7. Norqobilov A., Alimov Ch. Yurtparvarlar yurti: Qiziriq tumani hayotidan lavhalar. - T., "G.G'ulom," 2010.

## МЕДИАНИНГ ЖАМОАТЧИЛИК ФИКРИНИ ШАКЛАНТИРИШ ВА ИНФОРМАЦИОН СТРЕССДАН ҲИМОЯЛОВЧИ ФУНКЦИЯСИ

Жақсимуратова Гулжаҳан  
Қорақалпоқ давлат университети талабаси, Нукус

**АННОТАЦИЯ:** Мазкур мақолада медианинг жамоатчилик фикрини шакллантириш ва информацион стрессдан ҳимояловчи функцияси ҳақида сўз боради. Шунингдек, оммавий ахборот воситалари ва маънавий-ғоявий таҳдидлар ҳақида тўқталган.

**Калт сўзлар:** масс-медиа, жамоатчилик фикри, информацион стресс, глобаллашув, ахборот истеъмоли.

Медианинг таъсир кучи унинг материаллари муайян аудиторияга мўлжаллангани билан ҳам белгиланади. Масалан, ички аудиторияга мўлжалланган материалларни ёши, жинси, ижтимоий мақоми (касб-кори), миллий, диний мансублик каби белгиларга қўра фарқлаш мумкин. Масс-медиа ижтимоий ҳаётдаги муайян воқеа, ҳодиса ёки муаммо юзасидан ахборотни етказиб бериш орқали, унинг жамият учун аҳамияти, кенг аҳоли қатламлари учун долзарблигини таъкидлайди. Ахборот оқими ҳажман кенг, мазмунан ранг-баранг, узатилишга қўра тезкор бўлган бугунги қунда бу жараён янада чуқурлашиб бормоқда. ОАВ муайян хабарни узатиш ёки бирор бир ғоянинг моҳиятини очиб бериш орқали унинг ўзлаштирилишига, кишилар онгига барқарор тасаввурлар, образлар, қадриятларнинг шаклланишига ҳам кўмаклашади. Содда қилиб айтганда, у ижтимоий фикрга доимий ва изчил таъсир ўтказиши, уни шакллантира олиш имкониятига эгадир.

Медианинг бугунги қундаги ривожи ғоявий таъсир ўтказишнинг миёси ва кўламининг кескин даражада ўсишига олиб келди. Шунинг учун ҳам медиалойиҳалар орқали амалга ошириладиган ва катта маблағ талаб қилмайдиган ғоявий таъсир ва тазиикнинг ўзига хослиги шундаки у ўқувчи, тингловчи ёки томошабинга сездирилмасдан амалга оширилади ва бевосита қурбонларни келтириб чиқармайди. Ахборот душманни йўқ қилмаган, катта ҳаражатни талаб қилмаган ҳолда юқори самара беради. Бунда ғоявий таъсир йўналтирилган мамлакатлар аҳолисининг хоҳиш-истаклари, менталитети, мавжуд муаммолари жиддий ўрганилган ҳолда асосий диққат кишилар онги ва дунёқарашига таъсир кўрсатишига, шаклланган қадриятларни ўзгартиришга, уларнинг регуляторлик

ролини камайтиришга ёки бутунлай йўқقا чиқаришга қаратилади. Бундай таъсир ўтказиша даврий нашрлар тадрижийлик, радио ва телевидение фрагментли узатиш усулларидан усталик билан фойдаланишмоқда.

Оммавий ахборот воситалари ва маънавий-гоявий таҳдидлар ҳақида гап кетар экан, энг аввало ғараз мақсадларда амалга оширилаётган ташқи ғоявий таъсирлар, мамлакатимиз ҳаётида содир бўлаётган ўзгаришларга холис ёндашув байробги остида берилаётган бир ёқлама ахборотлар ва баҳоларнинг олдини олиш, уларга қарши объектив маълумотларни кишиларга тезкор, тизимли ва тадрижий етказиб бериш масаласи долзарб бўлиб турганини алоҳида қайд этиш зарур. Шундай вазиятда ҳар хил шаклу шамойилда чиқаётган бундай уринишларга қарши халқимиз ҳаётида содир бўлаётган ижобий ўзгаришлар ҳақида ҳикоя қилувчи чуқур таҳлилий маълумотларни мунтазам бериб бориш, фуқароларимизнинг ижтимоий фаоллигини кучайтириш, турли ижтимоий тоифа ва гуруҳларнинг қизиқиш ва интилишлари, ҳаётий манфаатларини ёритиш, фикрга қарши фикр, ғояга қарши ғоя, жаҳолатга қарши маърифат билан курашиш ҳар қачонгидан ҳам ҳаётий-амалий аҳамият касб этади. Шу билан бирга, оммавий ахборот воситалари олдида Ўзбекистондаги вазият, турли соҳаларда эришилган ютуқлар бўйича объектив ахборотларни жаҳон жамоатчилигига вақтида етказиб бериш ҳамда мамлакатдаги реал воқеликнинг ундан ташқарида ҳам тўғри ва ўринли қабул қилишларига эришишдек муҳим вазифа борлигини ҳам таъкидлаш зарур.

Аҳолининг холис ва ҳаққоний ахборотга эга бўлишини таъминлаш, юртдошларимизнинг маданий савияси, билим ва дунёқарашини ошириш, қадимий анъаналаримиз, тарихий меросимизни асрар-авайлаш ва ривожлантириш, шу билан бирга, фуқароларимиз онгига демократик қадриятлар, гражданлик позициясини шакллантириш, ёш авлодни ватанпарварлик ва умуминсоний қадриятларга хурмат руҳида тарбиялашни оммавий ахборот воситалари олдида турган яна бир муҳим вазифа сифатида қайд этиш мумкин. Инсон кундалиқ ҳаётида турли нарсалардан фойдаланади. Инсон уларни истеъмол қиласар экан ҳар гал муайян тартиб-қоидалар, содда қилиб айтганда, маданиятга риоя қиласади. Айтайлиқ, кийим-бош кийиш ёки озиқ-овқат истеъмол қилишнинг ўзига хос маданияти бор. Бугунги кунда ахборот ҳам истеъмол қилинадиган товарга айланган экан, ҳар бир инсон ёки алоҳида олинган жамият ўзида уни истеъмол қилиш маданиятини тарбиялаши лозим. Хўш, ахборот истеъмоли маданияти деганда нимани тушуниш керак?

Ахборот истеъмоли маданияти, энг умумий маънода, ахборот оқимидан инсон манфаатлари, камолоти ҳамда жамият тараққиётига хизмат қилувчи маълумотларни қабул қилиш, саралаш, тушуниш ва талқин этиш хизмат қиладиган билимлар, қобилият ва малака тизимини англатади. Глобаллашув, модернизация ҳаётимизга ҳар куни янги тушунчаларни олиб кираётир. Машина, ускуна, жиҳозлар, технологик жараёнлар янгиланиб, замонавийлашаётир. Чунки эскирган билим, кўникма, малака булар – иқтисодий жиҳатдан эски товар. 2020 йил чиққан планшетга 2023 йилдаги дастурни қўйиб бозорга чиқарган компания ўзини ўзи синдиради. Шунинг учун кучли, бой компаниялар “Янгисидан борми?”, дейди. Янги билим, ноу-хау, технологияларни яратадиган мутахассисларни дунёning қаерида бўлмасин, топиб олади.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Ахборот ва ахборотлаштиришга оид норматив-хуқуқий ҳужжатлар тўплами. — Т.: Адолат, 2008. — 41–48 б.
2. Дўстмуҳаммад Х. “Оммавий ахборот воситаларини ривожлантиришнинг демократик андозалари” Т., “Ўзбекистон”- 2005, 56 бет, Б. 3.
3. Отамуродов С. Глобаллашув ва миллий – маънавий хавфсизлик. Т., ”Ўзбекистон”, 2015, -Б.266.

## “САМАРКАНДСКИЙ ДУХ” ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА

Эргашева Мохидил Давлатмирза қизи  
магистр Ташкентского государственного университета востоковедения  
E-mail: [mohidil4202@gmail.com](mailto:mohidil4202@gmail.com)

**Введение.** Являющаяся “ведущей силой региональной дипломатии в Евразии” Шанхайская организация сотрудничества (ШОС)-межправительственная организация, основанная в Шанхае 15 июня 2001 года. В настоящее время в ШОС входят 8 государств-членов (Китай, Индия, Россия, Узбекистан, Казахстан, Кыргызстан, Пакистан и Таджикистан), 4 государства-наблюдателя, заинтересованные в присоединении к полноправному членству (Афганистан, Беларусь, Иран и Монголия) и 9 “Партнеров по диалогу” (Армения, Азербайджан, Камбоджа, Непал, Шри-Ланка, Турция, Катар, Египет и Саудовская Аравия).

Как нам известно, ШОС сосредотачивается на вопросах региональной безопасности, борьбе с региональным терроризмом, этническим сепаратизмом, религиозным экстремизмом и региональным развитием.

**Актуальность.** Глубокий кризис доверия на глобальном уровне, различные вооруженные конфликты, климатические потрясения, безусловно, заставляют каждое государство объединить и направить все усилия для противодействия угрозам и вызовам современного мира. Наиболее доступным и близким путем реализации этой цели является эффективное международное взаимодействие, что помогает укреплять взаимопонимание, развивать политическое и экономическое сотрудничество, прогрессировать торговлю и стимулировать культурно-гуманитарный обмен. Все это отражается в целях и задачах ШОС во имя общей безопасности и процветания.

В связи с этим, сейчас журналы и газеты со всех стран, публикующие мировые новости в политико-экономической, культурной и научной сферах, продолжают исследовать факторы, способствовавшие становлению нового облика нашей страны как открытой для всестороннего сотрудничества.

Данная лидирующая газета Омана продолжает знакомить общественность Султаната с актуальными событиями, происходящими в политической жизни Узбекистана. В контексте серьезных преобразований в мировой политике и экономике в Самаркандском саммите ШОС, прошедшем 15-16 сентября 2022

года, были принятые ключевые решения и договоренности, способствующие определению будущих факторов развития организации.

Об этом свидетельствует статья под заголовком “Арабские страны-партнеры Самаркандинского саммита Шанхайской организации сотрудничества”, опубликованная в газете “Asdaa Oman” (“Эхо Омана”).

Сейчас, когда на евразийском континенте происходят серьёзные политические и экономические преобразования, первая личная встреча глав государств после пандемии COVID-19, несомненно, является важным событием в регионе.

ШОС - это не военный блок, не направленность против третих стран или международных организаций, это организация, которая продвигает идеи многопланового сотрудничества на основе открытости и равноправия, не преследует никаких геополитических целей, не прилагает усилий против какого-либо лица или государства.

Эти принципы четко прописаны в ее уставе, и вся история организации доказывает строгое соблюдение этих правил.

Охватывающий 44% населения мира и 26,6% от общей площади земного шара, ШОС занимает важное место не только в евразийских, но и в глобальных вопросах. Она призвана стать полюсом притяжения без разделительных линий во имя мира, сотрудничества и прогресса. Этим идет трансформация международных отношений на современном этапе развития.

Во-первых, количество заинтересованных стран свидетельствует о том, что в последнее время привлекательность ШОС выросла в геометрической прогрессии.

Во-вторых, расширение числа членов ШОС вокруг Центральной Азии свидетельствует о том, что Центральная Азия является географическим ядром организации. Саммит в Самарканде еще раз продемонстрировал важность Центральной Азии в геополитике региональных держав как Россия, Китай, Индия и Турция.

В-третьих, предоставленная платформа позволила лидерам обсудить текущие важные вопросы на двусторонней, трехсторонней и многосторонней основах.

Прагматизм, динамизм и инициативность в последние годы стали своеобразной “визитной карточкой” узбекской дипломатии.

На сегодняшний день Республика Узбекистан твердо отстаивает свою позицию стратегии опережающего развития ШОС открытием новых сфер

сотрудничества и запуском незадействованных резервов, которыми владеет каждая из её участниц.

Учитывая представительный статус и организацию, этот саммит призван послужить еще одним подтверждением растущего влияния Узбекистана и авторитета его лидера Шавката Мирзиёева как международного политика.

Независимая и всеобъемлющая внешняя политика Ш.Мирзиёева позволила сбалансировать интересы “крупных”, “средних” и “малых” государств в регионе ШОС.

Здесь стоит отметить, что Афганистан в связи с региональной безопасностью упоминался всеми лидерами, а Ш.Мирзиёев предложил действенные пути выхода из многолетнего кризиса и создание специального фонда для гуманитарной поддержки Афганистана. В соответствии с вопросом безопасности, лидеры ШОС приняли Всеобъемлющий план действий на 2023-2027 годы об осуществлении положений “Договора о долгосрочном добрососедстве, дружбе и сотрудничестве”.

По мнению оманских аналитиков, это дает Самарканду важное преимущество – доверие всех стран ШОС, - которое позволяет ему уверенно продвигать ключевые региональные и глобальные инициативы через эту платформу.

Неудивительно, что мир из исторического Самарканда видится единым и неделимым, а не разобщенным. В этом и заключается суть уникального феномена “Самарканского духа”, на основе которого может быть выстроен принципиально новый формат международного взаимодействия, в том числе и в рамках Шанхайской организации сотрудничества.

Концептуальный подход Узбекистана к вопросу о том, как должна выглядеть ШОС в новую эпоху, может быть реализован в рамках выдвинутых им приоритетов: торговля, промышленное и технологическое сотрудничество, укрепление транспортных и экономических взаимосвязей, инновации и цифровая трансформация, зеленая экономика.

Разрабатывая политику с ощутимыми результатами по региональным проблемам, включая продолжающиеся конфликты в регионе, можно открыто заявить, что ШОС смещается в сторону экономического сотрудничества.

Узбекистан призывает страны ШОС переосмыслить ценность многостороннего сотрудничества в период геополитических и экономических потрясений на глобальном уровне. Поэтому Ш.Мирзиев представил на саммите

ряд инновационных инициатив и предложений, призванных послужить важным обновлением повестки дня, модернизацией о деятельности этой организации:

- проведение Большой торговой ярмарки ШОС и создание на ее базе единой электронной платформы;
- проведение в 2023 году в Самарканде на базе индустриальной зоны "Узбекистан-ШОС" первой встречи руководителей администраций специальных зон ШОС;
- формирование общего пространства промышленной и технологической кооперации на основе запуска Нового экономического диалога ШОС;
- проведение в Узбекистане Недели делового партнерства регионов государств ШОС;
- создание Альянса специальных экономических зон стран ШОС.

Фундаментальные преобразования в евразийской политике демонстрируют, что государства Центральной Азии должны диверсифицировать свою стратегию, включая переоценку потенциала ШОС.

Главным итоговым документом саммита стала Самаркандская декларация, в которой отражены:

- меморандум о предоставлении статуса партнера по диалогу с Египтом, Сирией, Катаром и Саудовской Аравией;
- одобрение заявок на получение статуса партнера с Бахрейном и Мальдивскими островами;
- совместные подходы стран ШОС к решению региональных и глобальных проблем при определении приоритетов развития организации.

**Заключение.** Исходя из вышеотмеченных фактов, можно с уверенностью сказать, что Самаркандский саммит сыграл важную роль как в проявлении инклюзивности, духа межцивилизационного взаимодействия, так и в построении международной системы. Несомненно, саммит "Самаркандского духа" успел войти в историю как своеобразное историческое и политическое достижение "Третьего Ренессанса". Кроме того, он послужил активному развитию взаимовыгодных отношений Узбекистана с Советом сотрудничества арабских государств стран Залива (ССАГЗ) не только в международных, но и в региональных вопросах государств.

## Список использованных источников литературы:

1. Новости ШОС:итоги заключительного дня саммита в Самарканде // Информационный сайт “Hook.report”. URL: <https://hook.report/2022/09/sco-day-2> (дата обращения: 17.09.2022).
2. Самаркандский саммит Шанхайской организации сотрудничества // Информационная газета Султаната Оман. URL:<https://asdaaoman.com/%D9%82%D9%85%D8%A9%D8%B3%D9%85%D8%B1%D9%82%D9%86%D8%AF%D9%84%D9%85%D9%86%D8%B8%D9%85%D8%A9%D8%B4%D9%86%D8%BA%D9%87%D8%A7%D9%8A%D9%84%D9%84%D8%AA%D8%B9%D8%A7%D9%88%D9%86%D9%85%D8%A7%D9%87%D9%88/> (дата обращения: 09.09.2022).
3. Самаркандский саммит ШОС:диалог и сотрудничество во взаимосвязанном мире // Шавкат Мирзиёев // Официальный сайт Президент Республики Узбекистан. URL: <https://president.uz/ru/lists/view/5495> (дата обращения: 12.09.2022).
4. Самаркандский саммит ШОС // Официальная страница “Uzreport.news”. URL: <https://uzreport.news/politics/v-ramkah-samarkandskogo-sammita-shos-biloprinyato-44-dokumenta> (дата обращения: 16.09.2022).

## O'ZBEKISTON-MISR: TA'LIM SOHASIDA HAMKORLIK

Ergasheva Mohidil Davlatmirza qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistri

E-mail: [mohidil4202@gmail.com](mailto:mohidil4202@gmail.com)

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasida tashqi siyosat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga, mamlakatimizning xalqaro maydondagi salohiyatini kengaytirishga va xorijiy davlatlar bilan keng qamrovli hamda o'zaro manfaatli aloqalarini rivojlantirishga xizmat qilib kelmoqda. Bu esa O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiysi, davlatning normativ-huquqiy hujjat va bayonotlarida o'z tasdiqini topib kelmoqda.

**Mavzu dolzarbliji.** So'nggi yigirma yil mobaynida O'zbekiston Respublikasi va Misr Arab Respublikasining ta'lism sohasidagi hamkorligini rivojlantirish dinamikasi ko'rib chiqiladi. Keng ko'lamli ta'lism va sayyoqlik loyihamalarini amalga oshirishga qaratilgan ikki tomonlama hamkorlikka alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunga kelib o'zaro manfaatlarga asoslangan xalqaro hamkorlik, xossatan ta'lism sohasida, har qanday davlatning maqsadi hisoblanadi, chunki u nafaqat samarali ta'lism olish imkoniyatining paydo bo'lishi hamda professor-o'qituvchilarini ta'lism darajasini rivojlantirish jarayoniga jalb qilishga, balki iqtisodiyotni rivojlantirishga ham o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Darhaqiqat, O'zbekiston o'zining har tomonlama muvozanatli tashqi siyosatida 2017-2021 yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida belgilangan aniq maqsadlarga erishdi, bu bilan jahon hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etildi, mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini, mintaqaviy va xalqaro masalalardagi o'rni va ahamiyatini mustahkamladi.

O'zbekistonning zamonaviy tashqi siyosati XXI asrning jadal o'zgarib borayotgan xalqaro siyosiy voqeliklarini hisobga olgan holda shakllantirilmoqda, ular chuqur o'ylangan, tashabbuskor va pragmatik tashqi siyosat yo'nalishini amalga oshirishni, yuzaga kelayotgan muammolarga o'z vaqtida va munosib javob berishni talab qiladi. Bu, o'z navbatida, yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasida aks etadi.

MAR bilan 1992-yildan boshlab o'rnatilgan diplomatik munosabatlar ikki mamlakatning turli sohalardagi hamkorlik asoslarini chuqurlashtirish va kengaytirish muddaolariga asos bo'lib xizmat qilgan. 2007-yilga kelib, O'zbekiston-Misr aloqalari rivojlanishining yangi bosqichi start olib, bu vaqtida mazkur hukumatlar o'rtasida

siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, bank, sud-huquq, axborot sohasida hamkorlik to‘g‘risida bir qator muhim bitimlar imzolandi.

Biroq, 2011-yilning “Arab bahori” voqealari Misrning siyosiy manzarasini keskin o‘zgartirib, mamlakatlar o‘rtasida jadal rivojlanib kelayotgan munosabatlarni keskin to‘xtatishiga sabab bo‘ldi.

2014-yilning 8-iyun kuni Misr Arab Respublikasi yangi oltinchi prezidenti etib Abdul Fattah Sayid Husayn Xalil As-Sisi saylanib, ushbu davlatda barqaror siyosiy boshqaruvi tizimi shakllantirilgandan so‘ng O‘zbekiston va Misr o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar tubdan yangi bosqichga ko‘tarildi hamda asosiy e’tibor savdo va investitsiya kooperatsiyalarini rivojlantirish, shuningdek, elekrotexnika, mashinasozlik, metallurgiya, kimyo va neft-kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoati, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini oshirishga qaratildi.

Barchaga ma’lumki, O‘zbekiston va Misr aholisining katta qismini yoshlar tashkil etadi. Shu munosabat bilan ushbu mamlakatlarning yoshlari katta salohiyatga ega bo‘lgan va mamlakatning kelajakdagi rivojlanishini belgilaydigan hal qiluvchi kuch sifatida qaraladi. Aynan shuning uchun ta’lim sohasi ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi [2].

O‘zbekiston Respublikasida 2019-yil 29-oktabr sanasida "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida"gi qonun qabul qilindi. Mazkur Qonunning 41-moddasida O‘zbekiston Respublikasining ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasidagi xalqaro hamkorligi jahon sahnasida o‘z o‘rnini topish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish uchun jahon ilm-fani va texnologiyalarining ilg‘or yutuqlaridan foydalanish, mamlakatga xorijiy investitsiyalar, yetakchi xorijiy ilmiy va texnologik markazlar, olimlar va mutaxassislarni jalb etish kabi ustuvor yo‘nalishlar aks etgan. Bugungi kunda davlatlarning ta’lim sohasidagi o‘zaro hamkorlik strategiyalari, o‘z navbatida, yangi tendentsiyalarni namoyon qilmoqda.

Oliy ta’lim sohasidagi xalqaro hamkorlikka kelsak, Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligi ushbu sohada xalqaro aloqalarni rivojlantirmoqda va dunyoning ilg‘or mamlakatlari tajribasini har tomonlama o‘rganib kelmoqda. Oliy ta’lim sohasida xalqaro hamkorlik hukumatlararo va idoralararo bitimlar doirasida amalga oshiriladi.

Ushbu shartnomalar professor-o‘qituvchilar va talabalar almashinuvi, qo‘shma konferensiyalar va simpoziumlarda ishtirok etish, qo‘shma ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish, ilmiy maqolalar nashr etish kabi masalalar bo‘yicha hamkorlikni nazarda tutadi.

MARning istiqbolli tashabbuslaridan biri bo‘lgan “Misrda ta’lim oling” nomli tanlovi ilmga chanqoq yoshlarimizga Misrning yetakchi oliy o‘quv yurtlarida grant asosida ta’lim olish imkoniyatini beradi.

Arab tilini o‘qitish bo‘yicha yirik loyihalarni birgalikda boshlash haqida ham aytib o‘tishni lozim topdik. Birinchisi, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasida Arab tilini o‘qitish bo‘yicha maxsus kurs bo‘lib, unda bir nechta yuqori malakali Misr mutaxassislari ishtirok etmoqda. Ikkinci loyiha mamlakatimizda Arab tilini o‘rgatish uchun misrlik o‘qituvchilarni jalb qilishdan iborat. Uchinchi loyiha O‘zbekiston va Misr universitetlari o‘rtasida yaqin hamkorlik istiqbollarini rivojlantirishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatida bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yaxshilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tayotganimizni ko‘p bora ta’kidladi. Axir, hozirgi tez rivojlanayotgan dunyoda kim g‘alaba qozonadi? Faqat yangi fikr, yangi g‘oya, innovatsiyaga tayanadigan davlat. Hozirgi kunda ilmiytadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, buning uchun zarur moliyaviy resurslarni safarbar etish, iqtidorli yoshlarning ushbu jarayonda ishtirok etishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va buning uchun yo‘naltirilgan ijodiy g‘oyalar va ishlanmalar vazifalari diqqat markazida bo‘ladi. Zero oliy ta’lim moddiy va ma’naviy farovonlikning zamonaviy vositasi, shuningdek, jamiyatning intellektual darajasining asosidir [3].

Yuqoridagi faktlarni hisobga olgan holda, Misr tomonidan Markaziy Osiyodagi eng qadimiylari va nufuzli oliy o‘quv yurtlaridan biri sifatida qaraladigan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining roli bu vaziyatda juda muhim ekanligini tushunish qiyin emas. Shubhasiz, sharqshunoslik universiteti va Misr oliy o‘quv yurtlari o‘rtasidagi hamkorlikni keyingi bosqichga olib chiqish uchun tobora ko‘proq loyihalarni amalga oshirish uchun barcha sa’y-harakatlar qilinmoqda. Bunga MARning siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma’rifiy yangiliklarini yorituvchi jurnallaridan birining ishonchli xabari guvohlik beradi.

Misr Arab Respublikasining ilg‘or universitetlaridan biri Xelvan universiteti Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektori-iqtisodiy fanlar nomzodi, dotsent Elyor Mahmudovni qabul qildi.

Davra suhbati doirasida tomonlar ta’lim sohasida hamkorlik memorandumlarini imzolash va turizm sohasida ikki tomonlama munosabatlarni kengaytirish muhimligini ta’kidladilar, bu esa talabalar o‘rtasida raqobatbardoshlikni oshirish uchun harakatlantiruvchi asos bo‘lib xizmat qiladi. Til ko‘nikmalari bo‘yicha qo‘shma loyihalarni ishlab chiqishda sezilarli yutuqlarga erishishdan tashqari, universitetlar ijtimoiy fanlar bo‘yicha hamkorlikni yanada mustahkamlashga intilmoqda. Bundan tashqari, Sharqshunoslik universiteti talabalari va magistrantlarining Xelvan

universiteti tomonidan iqtisod sohasida tashkil etilgan virtual ma’ruzalar turkumidagi faol ishtiroki talabalar almashinuvi imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi [4].

Shunday qilib, O‘zbekiston delegatsiyasi Xelvan universiteti va Misr Arab Respublikasining bir qator ilmiy-tadqiqot markazlarining mukammalligi va ixtisoslashuvi jihatlarini ko‘rib chiqdi. Universitet ma’muriyati o‘zaro manfaatli ilmiy konferensiyalar, ko‘rgazmalar, seminarlar, simpoziumlar va qisqa muddatli kurslarni tashkil etishda ikki tomonlama hamkorlik to‘g‘risida bir qator bitimlarni imzoladi.

Ikki tomonlama aloqalarni yanada kengaytirish va oliy ta’limda maksimal natijalarga erishish maqsadida, bu sohada hamkorlikni tubdan tahlil qilib, quydagilarni taklif etamiz:

- professor-o‘qituvchilar tarkibi malakasi doimiy ravishda Misrning yetakchi oliy o‘quv yurtlarida oshirilishi;

- ta’limning turli yo‘nalishlari uchun zamonaviy o‘quv-uslubiy adabiyotlar ishlab chiqilishi;

- Misr almashinuv dasturlari va treninglarida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professor-o‘qituvchi, talaba, magistr va doktorantlarining uzluksiz ishtiroki;

- ta’lim jarayonini takomillashtirish va tajriba almashish maqsadida, Misrning yetakchi oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchi va professorlarini muntazam ravishda yurtimizga taklif qilish.

**Xulosa** qilib aytish kerakki, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ta’lim jarayonini isloh qilishda xalqaro tajribani joriy etish, bir qator muammolarni (korrupsiya, ilg‘or yoritish texnologiyalarining yetishmasligi, ta’lim darajasi, diplomlarimizni jahon miqyosida tan olish muammosi mavjudligi) ko‘rib chiqish, uning sifatini oshirish, xorijiy mamlakatlarning ilg‘or oliy o‘quv yurtlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va kengaytirish borasida muhim qadamlar qo‘yilmoqda. Bularning barchasi oxir-oqibat nafaqat professional kadrlarni sifatli, raqobatbardosh tayyorlashni ta’minlashga, balki o‘quv tizimining yuqorida muammoli masalalarni oldini olishga ko‘mak beradi.

## **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Tashqi siyosat faoliyati sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining axborot xizmati.URL:[https://parliament.gov.uz/ru/events/committee/15421/?phrase\\_id=8354800](https://parliament.gov.uz/ru/events/committee/15421/?phrase_id=8354800) (murojaat sanasi: 19.02.2016).

2. O‘zbekiston-Misr. Eski hamkorlar uchun yangi turtki // Said Tulaganov // "The mag" elektron jurnali. URL:<https://themag.uz/post/uzbekistan-egipet-noviy-impuls-dlya-staryh-partnerov> (murojaat sanasi: 26.09.2018).

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. URL:<https://uza.uz/ru/.../poslanie-prezidentarespublikи-uzbekistan-shavkata-mirziyeev-23-12-2018/> (murojaat sanasi: 10.12.2019).

4. "GOMHURIA online" MAR axborot-siyosiy jurnali / / Taamur Xillal. URL:<https://m.gomhuriaonline.com/Gomhuria/941319.html#mobile-menu-01> (murojaat sanasi: 05.12.2021).

## Аналитический отдел как составляющая часть метода научного исследования путём рассмотрения интегральной подготовленности футболистов и основана инструментария повышения спортивного мастерства

Д.К. Исмагилов

Узбекский государственный университет физической культуры и спорта

**Аннотация.** Статья предлагает специалисту обзор основных инструментариев исследования для интегральной подготовки футболистов.

**Ключевые слова:** «Омега - С», «Microgate Racetime<sup>2</sup>», «Polar Team<sup>2</sup>», «Wyscout».

В Постановлении Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по всестороннему развитию массового и профессионального футбола» от 7 апреля 2023 года № ПП-115 подчёркивается о проведении научно – методических исследований по разработке эффективных методов подготовки высококвалифицированных футболистов и спортивного резерва.

Для чего необходимо использовать современные методы исследования. Известно, что измерительная аппаратура, направленная на исследование широкого диапазона измеряемых величин, быстро действующие и простые в определении разных параметров, малые габариты и вес персонального компьютера возможность его перемещения. Рассмотрим компьютерную телеметрическую систему «Омега - С» контроля физического состояния футболиста позволяющая в режиме тренировочного и соревновательного процессов определять: уровень адаптации к физическим нагрузкам; степень тренированности; ресурсы организма; психоэмоциональное состояние; показатель спортивной формы. При групповых исследованиях: отбирать наиболее подготовленных спортсменов; выявлять нарушителей спортивного режима. По каждому параметру приводятся нормы, отсюда выявляется несколько показателей спортсменов соответствуют установленной мере. Комплексная система мониторинга сердечного ритма «Polar Team<sup>2</sup>» о выполнении футболистами тренировочных упражнений и перемещения их в процессе игровой деятельности в различных зонах мощности (аэробной, аэробно – анаэробной и анаэробной) [1,2]. Метод биоимпедансного анализа определяющий параметры состава тела футболиста регистрирующий: жировую

массу тела, скорость обмена веществ, мышечную массу, тип телосложения, масса висцерального жира. «Polar Team<sup>2</sup>» даёт возможность отслеживания нагрузки и рассмотрения тренировки на компьютере в режиме реального времени за каждым игроком команды, который должен перемещаться в анаэробном режиме, хотя бы до 10 минут [5]. Измерительная технология «Microgate Racetime<sup>2</sup>» применяется для оценки скоростных качеств в беге на 10-30м с высокого старта челночный бег 5×30м [5].

Современная аналитическая система «Wyscout» позволяет регистрировать и рассмотреть технико – тактических действий как отдельного игрока, так и команды в целом. Она представляет обширный и высокоскоростной доступ к данным по командам более чем 80 стран мира.

Изложенные инновационные методы использованы отечественными учёными, где показано их высокая чувствительность и пригодность для повышенного эффективности по подготовке футболистов и что важно отметить совокупность методов составляет практико – прикладной и персонифицированного подходы к подготовке футболистов на этапах становления мастерства [1,2,5].

Современный футбол рассматривается специалистами как интенсификационный вид деятельности и характеризуется следующим положениями: напряженностью, усиленностью единоборств, соревновательной компетентностью - это форма деятельности в которой футболисты стараются превзойти друг друга в успешности выполнения технико – тактических действий, что в значительной степени являются факторами высокой эффективности игровой деятельности [4].

Королевская футбольная ассоциация Бельгии стала составлять юношеские команды классифицируя детей по биологической зрелости. Представленное направление в странах Европы получило название биобэндинг (англ. Bio-banding). Часть учёных предложили оценивать половое созревание по простому критерию максимум ростового скачка (англ. RHV – Reak height velocity) максимум ростового скачка - это показатель соматического развития во время проявления которого достаточно высокая скорость длины тела так и других частей тела [1].

## **Использованная литература:**

1. Баранаев Ю.А. Методы оценки биологической зрелости детей в практике спорта. Научно-теоретический журнал // Учёные записки университета имени П.Ф. Лесгафта. – 2022. – № 8 (210). С. 12-20.

2. Исмагилов Д.К. Моделирование специальных упражнений для совершенствования тактических действий на основе сопоставительного анализа взаимосвязи индивидуальных тактических действий квалифицированных и юных футболистов. Научно-теоретический журнал // Учёные записки университета имени П.Ф. Лесгафта. – 2022. – № 8 (210). С. 128-133.

3. Исмагилов Д.К. Исследование интегральной подготовленности футболистов на этапах становления спортивного мастерства. Монография. УГУФКиС – Чирчик 2022 – 107с.

4. Кошбахтиев И.А. Информационное обеспечение образовательного процесса по физическому воспитанию студентов. Учебное пособие. Ташкент.2022 – 90с.

5. Эркинов Ш.Ш. Применение инновационных методов в подготовке футболистов на этапе углубленной специализации. Автореф.дисс.доктор.философии (PhD) по педагогическим наукам. – Чирчик. УГУФКиС. 2021.56с.

## Patissonni iste'mol qilish usullari

Kenjayeva To'lg'onoy Rahmonovna (assistant)

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti

[Kenjayeva67@mail.ru](mailto:Kenjayeva67@mail.ru)

**Annotatsiya.** Patisson (Cucurbita pepo var.), kulcha qovoq – qovoqdoshlar oilasiga mansub, bir yillik o'simlik. Palagi tik, butasimon sershox o'simlik. Ildizi yaxshi rivojlangan. Poyasi va barg bandlari nisbatan yo'g'on. Barglari o'rtacha kattalikda, dag'al, 3 yoki 5 qirrali. Gullari bir uyli, bir jinsli, yirik, rangi sariq, poyalarda yakka-yakka joylashadi. Mevasi –qovoqcha, mayda, shakli yulduzsimon. Chetlari kungurali. Yangi tukkan mevalari rangi och yashil, meva katta bo'lgan sari rangi oqarib, ayrim mevalar yuzasida och yashil dog'lar yoki tasmalar paydo bo'lishi mumkin. Ularning 2-4 kunlik mevasi iste'mol qilinadi. Patisson issiqsevar o'simlik. Patisson plyonka ostida fevral oyining bиринчи 10 kunligida, ochiq dalaga esa aprelning bиринчи 10 kunligida ekiladi. Qator va tup oralig'i 70x70 yoki 80x 80 sm sxemada ekiladi.

**Abstract.** Patisson (Cucurbita pepo var.), pumpkin is an annual plant belonging to the pumpkin family. Palagi is an erect, shrub-like branched plant. The root is well developed. Stem and leaf bands are relatively thick. The leaves are medium-sized, rough, 3- or 5-sided. The flowers are monoecious, unisexual, large, yellow in color, placed singly on the stems. The fruit is a pumpkin, small, star-shaped. The edges are brown. The color of freshly harvested fruits is light green, as the fruit grows, the color becomes pale, and light green spots or bands may appear on the surface of some fruits. Their fruits are eaten after 2-4 days. Patisson is a heat-loving plant. Patisson is planted under film in the first 10 days of February, and in the open field in the first 10 days of April. The distance between the row and the bush is 70x70 or 80x80 cm

**Kalit so'zlar.** Mevasi qovoqcha. Shakli yulduzsimon. Mevasining chetlari kungurali. Barglari 3 yoki 5 qirrali. Ser et , sersuv meva hosil qiladi.

**Key words.** The fruit is a pumpkin. Star shaped. The edges of the fruit are brown. The leaves are 3- or 5-sided. Ser et , produces a serous fruit.

Patisson asosan tuzlangan, konservalangan (6-8 kunlik mevasi) holda istemol qilinadi, katta bo'lib ketganlari mollar uchun yaxshi ozuqa hisoblanadi. O'zbekistonda 1988 yildan patissonning Oq-13 navi ekiladi. Uning hosildorligi 110-159 s\ga.

Patisson patiya yunoncha **pathos-dard, fransuzcha pate** – kulcha qovoq yoki pirog ma’nosini bildiradi. Xom patissonlarning kaloriya miqdori – 100 gr mahsulot uchun 19 kkal, ulardan quyidagilar: Oqsillar- 0.6 gr, yog‘lar-0.1 gr, uglevodlar-0.1 gr, suv-92 gr, oziq-ovqat tolalari-1.3 gr, 100 gr uchun vitaminlar : tiamin, B 1-0, 03 mg Riboflavin, B2 -0.04 mg, Askorbin kislota, C – 23 mg, Nikotin kislotasi, RR- 0.25 mg har 100 gramda kal’siy- 13 gr, natriy- 14 gr, kalsiy- 203 gr, fosfor-12 mg.

Qovoqdosh ekinlar madaniy qovoqlarning ko‘pchilik navlarini poya tuzilishi bo‘yicha ikki guruhga, ya’ni tup hosil qiluvchi va palak otib o‘suvchilarga ajratish mumkin. Qovoqdoshlar ichida qovoq palak otib o‘suvchi, patisson va sabzavot qovoqchalari esa tup hosil qiluvchilarga mansub. Ularning barchasi seret mevalar hosil qiladi va ochiq maydonda yetishtiriladi. Patisson yillik o‘t o‘simlik bo‘lib qovoqdoshlar oilasiga kiradi. Patissonning yangi tugunaklari ovqatga ishlatiladi. Diametri 3-5 sm bo‘lgan 2-4 kunlik kulcha qovoqlar marinadlash uchun, diametri 6-10 sm bo‘lgan 5-10 kunliklari esa, tuzlash uchun ishlatiladi.

### **Bodring bilan patisson retsepti**

- 900 gramm patisson;
- 900 gramm bodring;
- 55 gramm arpabodiyon;
- 35 gramm lavr barglari yoki sabzi me-
- sarimsoq piyoz;
- ziravorlar.

Bankani to‘ldirish :

1200 ml suv;

80 gramm tuz;

Boginka qiyofasini olaylik, slavyan asotirlarida u cho‘qintirilmay turib o‘lgan bolaning darbadar ruhi bo‘lib, uchqun ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. U odamlarni adashtirib botqoqlikka boshlab borib g‘arq qiladi<sup>10</sup>. U shoira dramasida ham aynan ushbu qiyofada ishtirok etadi. O‘zbek mifologiyasida bunday obraz yo‘q. Shuning uchun uni boginka deya o‘girgani ma’qul muqobil bo‘lgan.

Perelesnik<sup>11</sup> qiyofasi ukrain afsonalarida odamlarga dunyodan o‘tgan qarindoshi qiyofasida ko‘rinuvchi jin sifatida talqin qilinadi. Ushbu jin odam tanasiga kirib olib, ayollar bilan yaqinlashishi, hatto farzand ko‘rishi ham mumkin. Izoh berib ketib aynan asliyatdagi nomni olganligi mantiqan to‘g‘ri tarjima bo‘lgan. Chunki, o‘zbek milliy mifologiyasida bunday obraz yo‘q.

Kuts<sup>12</sup> afsonaviy obraziga tarjimon shunday izoh beradi: ukraincha kutsiy-dumsiz, beloruscha – jin, polyakcha – dumy kesilgan hayvon degan so‘zlardan kelib chiqqan, deya taxmin qilinadi. Bu jin dumsiz bo‘lib, botqoqqa tushgan odamlarni halok qilish bilan shug‘ullanadi. Asliyatda ham muallif uni xuddi shu ma’noda ishlatadi.

Zliden<sup>13</sup> slavyan asotirlarida yovuz jinlarni shu nom bilan atashgan. Bu nom ko‘p ma’noli zlyiden so‘zidan yasalgan bo‘lib yovuz, dangasa, baxtsiz odam, gado degan ma’nolarni bildiradi. Ko‘plikda ishlatilganda esa bu so‘z baxtsiz qismat ma’nosida keladi.

Bu mifologik obrazlarning atalishini mutarjim asliyatdagidek qoldirgan. Tarjimada ham asliyatdagidek nomlagan. Ba’zi afsonaviy obrazlarning nomini o‘girgan. Masalan, suv parisi<sup>14</sup> – rusalka<sup>15</sup>. Ushbu afsonaviy obraz o‘zbek xalqi

<sup>9</sup>Украинка Леся, “Тонг отмоқда”, “Mashur press” нашириёти, Т, 2019 йил. 152 б.

<sup>10</sup>Украинка Леся, “Тонг отмоқда”, “Mashur press” нашириёти, Т, 2019 йил. 152 б.

<sup>11</sup>Украинка Леся, “Тонг отмоқда”, “Mashur press” нашириёти, Т, 2019 йил. 152 б.

<sup>12</sup>Украинка Леся, “Тонг отмоқда”, “Mashur press” нашириёти, Т, 2019 йил. 152 б.

<sup>13</sup>Украинка Леся, “Тонг отмоқда”, “Mashur press” нашириёти, Т, 2019 йил. 153 б.

<sup>14</sup>Украинка Леся, “Тонг отмоқда”, “Mashur press” нашириёти, Т, 2019 йил. 152 б.

<sup>15</sup>Украинка Леся, Собрания сочинений, Гос. Изд. худ. лит, Москва, 1956 йил, 2- том, 183 с.

ertaklarida, afsonalarida ishlatiladi. Vodyanoy<sup>16</sup>-suv ajinasi<sup>17</sup> deb o‘giradi. Chunki ushbu so‘z turkiy afsonalarda ham ishlatiladi. Masalan, ko‘l bo‘yiga, suv bo‘yiga kechasi yaqinlashma, suv ajinasi tortib ketadi deya bolalarni qo‘rqitib ehtiyyotlashardi buvilar. Leshey<sup>18</sup> –O‘rmonlik<sup>19</sup> deya o‘giradi. Leshey (Ruscha o‘zbekcha lug‘atda leshey- alvasti, dev). Asliyatda esa u o‘rmon hukmdori sifatida tasvirlanadi. Shuning uchun uni o‘rmonlik deya mantiqan to‘g‘ri o‘giradi. Asliyatda “Polevaya rusalka”<sup>20</sup> afsonaviy obrazi mavjud, uni “Dala parisi”<sup>21</sup> deya o‘giradi. Asliyatda: Tot, kto v skale sedit<sup>22</sup> -mifologik obrazini – Cho‘qqida o‘tiruvchi<sup>23</sup> deya aynan o‘giradi. Bu esa asliyatning mazmun- mohiyatiga mos keladi.

Tarjimon mifologik obrazlarni nomini o‘girishda to‘rtta usulni tanlaydi. Mazmun-mohiyati o‘zbek milliy qadriyatlariga to‘g‘ri kelsa aynan o‘giradi. Ikkinchisi usuli, asliyatdagি obrazning nomini aynan berib, asliyatda qanday ma’noda kelganligini izohlaydi. Uchinchi usuli esa muqobilini qo‘llaydi. Tarjimonning yana bir uslubi mavjud. Mifologik obrazlarning slavyan xalqi asoratlarida qanday ma’noda ishlatilganini ham tushintirib ketadi. Asliyatda bu izoh yo‘q. Bular esa asliyatning mazmun- mohiyatini to‘la-to‘kis ochib berishga xizmat qiladi.

“Lesnaya pesnya” dramasida shunday she’riy satrlar mavjud:

I net u nas защи́ты,

Ved мы otsom забыты<sup>24</sup>.

Mutarjim Sirojiddin Rauf ushbu she’riy satrlarni shunday o‘giradi:

Biz otasiz bolalarmiz,

Bunda g‘arib lolalarmiz<sup>25</sup>.

Aynan adekvat tarjima emas. Biroq, mutarjim Sirojiddin Rauf cho‘qintirilmasdan avval o‘lib ketgan Boginkalar gapini go‘zal sifatlash orqali ularning ruhiyatini ochib beryapti. Lolalar ham go‘zal bo‘lib ochiladi-yu, tezda so‘ladi. Boginkalarni lolalarga o‘xshatilishi topib ishlatilgan qiyosiy izohdir.

Mutarjim milliy kiyimlarni tarjima qilishda qanday usulni qo‘llaydi? Ukrainlarning milliy kiyimini aynan o‘zini oladi, biroq, izoh berib ketadi. Sahna

<sup>16</sup>Украинка Леся, Собрания сочинений, Гос. Изд. худ. лит, Москва, 1956 йил, 2- том, 183 с.

<sup>17</sup>Украинка Леся, “Тонг отмоқда”, “Mashur press” нашириёти, Т, 2019 йил. 152 б.

<sup>18</sup>Украинка Леся, Собрания сочинений, Гос. Изд. худ. лит, Москва, 1956 йил, 2- том, 194 с.

<sup>19</sup>Украинка Леся, “Тонг отмоқда”, “Mashur press” нашириёти, Т, 2019 йил. 167 б.

<sup>20</sup>Украинка Леся, Собрания сочинений, Гос. Изд. худ. лит, Москва, 1956 йил, 2- том, 235 с.

<sup>21</sup>Украинка Леся, “Тонг отмоқда”, “Mashur press” нашириёти, Т, 2019 йил. 153 б

<sup>22</sup>Украинка Леся, Собрания сочинений, Гос. Изд. худ. лит, Москва, 1956 йил, 2- том, 251 с.

<sup>23</sup>Украинка Леся, “Тонг отмоқда”, “Mashur press” нашириёти, Т, 2019 йил. 251 б.

<sup>24</sup>Украинка Леся, Собрания сочинений, Гос. Изд. худ. лит, Москва, 1956 йил, 2- том, 185 с.

<sup>25</sup>Украинка Леся, “Тонг отмоқда”, “Mashur press” нашириёти, Т, 2019 йил. 152 б.

ko‘rinishida ishlatilayotgan ushbu gapda milliy kiyimni aynan o‘zini olib, uni izohlab ketishi ma’qul uslub, albatta.

Shuningdek, asar qahramonlarining xususiyatlarini ochib berishda ham izohli o‘giradi. Mavka bilan Lukashni tanishuv tasviriga e’tibor bersak. Bu yerda o‘rmonga qo‘shimcha ruhi so‘zini tashqaridan kiritib, muallifning uslubini va Mavka obrazidan nima maqsadda asarda foydalanganini yaqqol aks ettiradi.

**Asliyatda:** A ya lesnaya Mavka<sup>26</sup>.

**Tarjimada:** Men o‘rmon ruhi – Mavka bo‘lamon<sup>27</sup>.

Lukash bilan Mavkaning keyingi suhbatida mutarjim Mavka obraziga yanada aniqlik kiritadi. Mavka so‘zini pari deya o‘giradi. Slavyanlar Mavkaning nomidanok pariligini bilishadi. O‘zbek kitobxonasi esa Mavka – pari ekanligini tushunmasligi mumkin. Shuning uchun yanada aniqlashtirib o‘girgani maqsadni anglatib turibdi.

**Asliyatda:** A, vot ты кто! От поjlых lyudey

Pro mavok ya слыхал, no sam ni razu

Ne videl ix<sup>28</sup>.

**Tarjimada:** Mana kim ekansan! Chollardan ko‘p bor

Parilar haqida eshitgan edim,

Ko‘rmagandim lekin umrimda<sup>29</sup>.

Tarjimon asliyatning mazmuni, obrazlari, uslubini to‘g‘ri aks ettirish bilan birga undagi vazn, qofiya, ritmni aniq bera olgan. Asliyatning sehrini, ruhini, jozibasini, ohangini saqlay olgan.

Umuman, Lesya Ukrainska dramalarining o‘zbek tiliga tarjima qilinishi adabiyotimiz hazinasiga, tarjimachiligidan ravnaqiga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Mirziyoev.Sh.M. “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni – Xalq so‘zi, 2017 yil 8 fevral, №28.

2.Mirziyoev Sh.M. Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir, O‘zbekiston ijodkor ziylolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruza, Xalq so‘zi, 2017 yil 4 avgust,

<sup>26</sup>Украинка Леся, Собрания сочинений, Гос. Изд. худ. лит, Москва, 1956 йил, 2- том, 198 с.

<sup>27</sup>Украинка Леся, “Тонг отмоқда”, “Mashur press” нашириёти, Т, 2019 йил. 172 б.

<sup>28</sup>Украинка Леся, Собрания сочинений, Гос. Изд. худ. лит, Москва, 1956 йил, 2- том, 198 с.

<sup>29</sup>Украинка Леся, “Тонг отмоқда”, “Mashur press” нашириёти, Т, 2019 йил. 172 б.

3.Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliv bahodir – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2018 yil. Abdurahmon Jomiyning “Muhabbat maxzani” kitobiga yozilgan so‘zboshi, 333-339 betlar.

4.Aznaurova R. “Tarjima san’ati” kitobi, “Badiiy tarjimalarning asosiy problemalari” maqolasi, 12 bet. O‘zSSR Davlat nashriyoti, 1961 yil.

5.Anatol Kostenko. Lesya Ukrainska, izd. Molodaya gvardiya 1971, Jizn zamechatelnix lyudey

6.Vinogradov V.V. – Leksicheskie voprosy perevoda xudojestvennoy prozы: Avtoref. Diss. ... dokt. Filol.nauk, 1975g.66s.

7.Deych A. I. , Lesya Ukrainska. Moskva. Goslitizdat, 1954, 174 s.

8.Zaripova R– Tarjima san’ati va tarjimon mahorati, Toshkent: “Tafakkur qanoti” nashriyoti, 2021y, 132 bet.

9. Oxrimenko P.P.i O.G. Oxrimenko. Lesya Ukrainska i mirovaya kultura. Moskva -1970g. 32 bet.

10. Rashidov Asil, Lesya Ukrainska, (adabiy portret), Toshkent, Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972 yil, 53 bet.

11. Salomov G‘aybulla, Tarjima nazariyasi asoslari, Toshkent, O‘qituvchi nashriyoti, 1983 yil.

12. Tixonov Nikolay, Moskva, “Literaturnaya gazeta”, ”Velikaya doch Ukraini” maqolasi 1971 y, 5 mart, 1-bet.

13. Ukrainska Lesya “Tong otmoqda”, T. “Mashhur press” nashriyoti, 2019 yil.

14. Ukrainska Lesya “Tanlangan asarlari”, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1971 yil.

15. Ukrainska Lesya, Bolshaya sovetskaya ensiklopediya 30 tom, 3-ye izd. Moskva, Sovetskaya ensiklopediya, 1969—1978.

16. Ukrainska Lesya, Sobranie sochineniy: V 3 t.: Per. s ukr. Moskva: Goslitizdat, 1950.

17. Ukrainska Lesya, Sobranie sochineniy: V 4 t.: Per. s ukr. Moskva: Goslitizdat, 1956.

18. Quronov D, Mamajonov Z, Sheraleva M – Adabiyotshunoslik lug‘ati. T: Akademnashr, 2013 y, 406 bet.

19. Ojegov S.I. – Tolkoviy slovar russkogo yazika. Izd. 25-ye ispr i dop Pod red L.I. Skvorsova – M.: 2006.

20. Rahmatullaev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – T: Universitet. 1992y. Z78b.

## ISHEMIK INSULT BILAN IKKINCHI TURDAGI QANDLI DIABET BILAN OG‘RIGAN BEMORLARDA KOMORBID PATOLOGIYA

**X. R. Bobokulov**

Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Buxoro filiali

**M. B. Urinov**

Buxoro davlat tibbiyot instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ishemik insult bilan ikkinchi turdagи qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarda komorbid patologiya analiz qilinadi. O‘z vaqtida tashxis qo‘yish klinik (nevrodolog tomonidan dastlabki ekspertizasi, devronozni tasdiqlovchi dastlabki tashxisi, nevrologik kansituvchi yoki boshchunli tekshiruvdan so‘ng, nevrologik tanqidni aniqlash, insultning boshlanishidan boshlab 4 soat ichida aniqlanadi).

**Kalit so‘zlar:** ishemik insult, qandli diabet, komorbid patologiya, tashxis qo‘yish, neurologik tanqid.

### **COMORBID PATHOLOGY IN PATIENTS WITH TYPE II DIABETES MELLITUS WITH ISCHEMIC STROKE**

**Kh. R. Bobokulov**

Bukhara branch of the Republican Research Center for Emergency Medicine

**M. B. Urinov**

Bukhara State Medical Institute

**Abstract:** This article analyzes comorbid pathology in patients with type 2 diabetes with ischemic stroke. Timely diagnosis is clinical (preliminary examination by a neurologist, preliminary diagnosis confirming devronosis, after neurological discrimination or headache examination, determination of neurological crisis, determined within 4 hours from the onset of stroke).

**Keywords:** ischemic stroke, diabetes, comorbid pathology, diagnosis, neurological assessment.

### **КОМОРБИДНАЯ ПАТОЛОГИЯ У БОЛЬНЫХ САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ II ТИПА С ИШЕМИЧЕСКИМ ИНСУЛЬТОМ**

**Х. Р. Бобокулов**

Бухарский филиал Республиканского научного центра экстренной медицинской помощи

**М. Б. Уринов**

Бухарский государственный медицинский институт

**Аннотация:** В статье анализируется коморбидная патология у больных сахарным диабетом 2 типа с ишемическим инсультом. Своевременная диагностика является клинической (предварительный осмотр невролога, предварительный диагноз, подтверждающий девроноз, после неврологической дискриминации или обследования головной боли, определение неврологического криза, определяемого в течение 4 часов от начала инсульта).

**Ключевые слова:** ишемический инсульт, сахарный диабет, коморбидная патология, диагностика, неврологическая оценка.

**Dolzarblii.** II-toifa diabet (SD-2) surunkali kardiovaskulyar va serebrovaskulyar patologiyalar uchun mustaqil surunkali o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan xavf omilidir. Qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarda ishemik insult (II) tezez uchraydi (1 respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi)

Miya tomirlari morfologiyasidagi diabet bilan bog‘liq o‘zgarishlar deyarli hech qayerda tasvirlanmagan yoki tizimlashtirilmagan. Kognitiv buzilishlarning, shu jumladan diabet bilan og‘rigan bemorlarning rivojlanishini bashorat qiluvchi mikroangiopatiya tashxisining asosi neyroimaging usullari bo‘lishi mumkin.

Qon tomirlari devori patomorfologiyasining ko‘plab muammolarining nomuvofiqligi ko‘p jihatdan biometrik va matematik yondashuvlarning yetarli darajada qo‘llanilmasligiga bog‘liq. Ular sizga ma’lum farazlar va nazariyalar foydasiga yanada qat’iy va mantiqiy asoslangan dalillarni olish, yangi qoidalarni qat’iy asoslash, ishonchksiz g‘oyalar va taxminlarni rad etish imkonini beradi. Qon tomirlari devoridagi morfologik o‘zgarishlarning miqdorini aniqlash Diabetes mellitusda gemodinamik buzilish qonuniyatlarini asoslashga imkon beradi. Adabiyotda II-toifa diabet bilan og‘rigan bemorlarda, ayniqsa, komorbid patologiyasi bilan og‘rigan bemorlarda yallig‘lanish jarayonining faollashishi haqida dalillar mavjud.

Og‘ir kurs va sun’iy intellektning yomon prognozi bilan bog‘liq omillarni tahlil qilish komorbid patologiyaning muhim rolini ko‘rsatadi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Ta’sirini aniqlang CD-2 fonida ishemik insult (II) bilan og‘rigan bemorlarda komorbid patologiya darajasi.

**Materiallar va usullar.** Ushbu maqsadga erishish uchun 2020-2023 yillar davomida Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Buxoro filiali nevrologiya bo‘limida DM-2 bilan og‘rigan bemorlarda 124 ta IS rivojlanishi holati tahlil qilindi. I-guruh DM-2 fonida II bilan kasallangan 81 bemor (65,3%), 2-guruh DM-2siz IS bilan kasallangan 67 bemor (34,7%).

Qo‘srimcha kasalliklar darajasi Charlson komorbidite indeksi (CI) yordamida aniqlandi, bu mavjud kasalliklar va yoshga qarab o‘limga olib keladigan oqibatlarning

rivojlanishining 5 yillik xavfini baholaydi. O‘z vaqtida tashxis qo‘yish klinik (nevrodolog tomonidan dastlabki ekspertizasi, devronozni tasdiqlovchi dastlabki tashxisi, nevrologik kamsituvchi yoki boshchunli tekshiruvdan so‘ng, nevrologik tanqidni aniqlash, insultning boshlanishidan boshlab 4 soat ichida aniqlanadi).

**Natijalar.** Aniqlanishicha, I-guruhdagi bemorlarda (DM-2 fonida II bo‘lgan) komorbidlik darajasi ( $IC=8,9\pm1,3$ ) II-guruhdagi (DM-2siz IS bilan) ( $IC=5,7\pm2,4$ )ga qaraganda ancha yuqori ( $p<0,02$ ). ICH bo‘yicha 8 balldan yuqori bo‘lgan qo‘shma kasalliklar darajasi DM-2 fonida II rivojlanish xavfini 4,3 baravar oshirdi ( $p<0,05$ ).

**Xulosa.** Qo‘shimcha kasalliklar insultning og‘ir kechishi va IIda salbiy oqibatlarning ko‘pligi sabablaridan biridir. Og‘ir birga keladigan patologiya, bir tomonidan, raqobatdosh kasallik sifatida harakat qilishi va DM-2 bilan kasallangan bemorning ahvolini og‘irlashtirishi mumkin, boshqa tomonidan, II patogenezida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

## Adabiyot

1. Gorbacheva, F.E. 2-toifa qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarda miya qon tomirlari / F.E. Gorbachev, Yu.V. Telysheva // Nevrol. jurnal — 2008. — V. 13, 1-son. — S. 19-23. (Горбачева, Ф.Е. Церебральный инсульт у больных сахарным диабетом 2 типа / Ф.Е. Горбачева, Ю.В. Тельшева // Неврол. журн. — 2008. — Т. 13, №1. — С. 19-23.)

2. Khoury JC, Kleindorfer D., Alwell K. va boshqalar. Qandli diabet: katta ikki millatli populyatsiyada ishemik insult uchun xavf omili // Qon tomir. 2013. jild. 44. No 6. R. 1500-1504. (Khoury J.C., Kleindorfer D., Alwell K. et al. Diabetes mellitus: a risk factor for ischemic stroke in a large biracial population // Stroke. 2013. Vol. 44. № 6. P. 1500–1504.)

## MOLIYA TIZIMI VA FANDAGI O'RNI

Nasimova Yulduz Baxriddin qizi

Toshkent moliya institute Bank ishi fakulteti 3-kurs BIA-82 guruh talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'kidlash joizki, amaliy ish jarayonida turli pul fondlaridan shakllanadigan va foydalaniladigan moliyaviy munosabatlarning turli sohalari majmuiga moliya tizimi deyiladi. Unga boshqacha ta'rifberish ham mumkin: davlat va korxonalarning pul fondlarini shakllantirish, taqsirnlash va foydalanish borasidagi shakl va metodlar tizimiga moliya tizimi deyiladi. Bu haqida batafsil quyida keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** moliya tizimi, pul fondlari, kreditor, garant (kafil), pul sektori, davlat byudjeti, moliyaviy siyosat.

“Moliya tizimi” tushunchasi keng ma'nodagi “moliya” tushunchasining taraqqiyoti natijasidir. Marnlakatda bozor islohotlarining amalga oshirilishi va mohiyatiga ko'ra butunlay yangi bo'lgan iqtisodiy va moliyaviy siyosatning hayotga tatbiq etilishi moliya tizimining sohalari va bo'g'inlariga nisbatan ob'ektiv ravishda yangicha yondashuvni taqazo etdi.

Davlat moliya tizimi “Davlat moliyasi va mahalliy moliya” sohasining o'ziga xos bo'g'ini hisoblanadi. Uning o'ziga xosligi davlatning markazlashtirilgan fondlariga mablag'larni jalgan qilish bo'yicha moliya-kredit munosabatlariga doir alohida shaklidan iborat. Bunda davlat, asosan, mablag'larni qarzga oluvchi va shuningdek, kreditor va garant (kafil) sifatida ham maydonga chiqadi. Davlat kreditida miqdoriy jihatdan mablag'larni qarz oluvchi sifatida davlat faoliyati ustunlik qiladi. Davlatning kreditor sifatidagi operatsiyalari, ya'ni davlat yuridik va jismoniy shaxslarga ssudalar taqdim qilganda yoki kafil bo'lganda, ancha tor bo'ladi. Shunga qaramasdan, bozor iqtisodiyoti sharoitida byudjetdan moliyalashtirish ham qaytaruvchanlik va to'lovchanlik sharti bilan amalga oshirilsa, keng rivoj topishi mumkin.

Moliya tizimi - iqtisodiyot pul sektorining bir qismi, moliya amaliyoti. Moliya tizimi faqat moliya munosabatlarini emas, balki moliyaga taalluqli siyosiy, tashkiliy munosabatlarni ham qamrab oladi. Bu tizim tarkibiga quyidagilar kiradi:

- moliya obyektini hosil etuvchi pul fondlari yoki moliya resurslari;
- korxonalar, xonardonlar, davlat idoralari va nodavlat tashkilotlaridan iborat moliya munosabatlarining subyektlari - ishtirokchilari;
- moliya mexanizmi, ya'ni moliya munosabatlarida qo'llaniladigan va pul bilan bog'liq vositalar (foyda, zarar, rentabellik, likvidlik, byudjet, byudjetdan tashqari

fondlar, subsidiya, subvensiya, dotatsiya, sanatsiya, moliya normativlari, moliyaviy sanksiya va boshqalar);

- moliya institutlari va davlatning moliya idoralari (moliya kompaniyalari, moliya jamg‘armalari, moliya vazirligi, uning mahalliy bo‘linmalari, soliq idoralari, g‘aznachilik xizmati, soliq politsiyasi va boshqalar);
- moliya bozori - fond bozori, sug‘urta xizmati bozori, valyuta bozori;
- moliya siyosati - iqtisodiyot subyektlarining moliyaga oid yo'l-yo‘riqlari va xatti-harakati.

Mamlakatning moliya tizimida davlat byudjeti rmarkaziy o'rin egallaydi. Markazlashtirilgan pul fondini shakllantirish orqali davlatning qo'lida katta hajrndagi rnoliyaviy resurslar to'planadi va ular urnurndavlat ehtiyojlarini qondirishga sarf etiladi. Davlat byudjeti umumdavlat manfaatlarini inobatga olgan holda ustuvor yo'nalishlar uchun moliyaviy resurslarni jamlashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ustuvor yo'nalishlar uchun davlat byudjeti yordarnida moliyaviy resurslarni jarnlash bir necha usullar yordamida arnalga oshirilishi mumkin. Ayrim hollarda, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarinijadal sur'atlar bilan rivojlanishini ta'minlash maqsadida byudjet assignovaniyalarining hajrni oshiriladi. Boshqa hollarda esa, o'sha sektorlardan mablag'lami davlat byudjetiga olishda qulay sharoit yaratiladi.

Davlat byudjeti iqtisodiyotning alohida tarmoqlari rivojlanishida asosiy manba rolini ham o'ynashi mumkin. Masalan, ilmiy-texnika taraqqiyoti asosida milliy iqtisodiyotda yangi tarmoq vujudga kelayotgan bo'lsa, uning paydo bo'lishini hozirgi sharoitda byudjetdan moliyalashtirishsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Faoliyat ko'rsatayotgan sub'ektlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda byudjet katta ahamiyat kasb etadi. Turli ob'ektiv va sub'ektiv omillarning ta'siri ostida ayrim sub'ektlarning o'z moliyaviy resurslari ulaming sog'lom faoliyat ko'rsatishi uchun yetarli bo'lmay qolganda chetdan mablag' jalb qilishga ehtiyoj tug'iladi. Bunday sharoitda davlat byudjeti tartibga soluvchi manba sifatida maydonga chiqishi mumkin. Albatta, bunday hollarning barchasida davlat byudjeti mablag'lari sub'ektlaming o'z manbalari, tarmoq ichidagi resurslar, bank kreditlaridan so'ng oxirgi tartibga soluvchi manba sifatida foydalilanadi.

## Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Moliya: Darslik. T.S. Malikov, O.O. Olimjonov; / – T.: "Iqtisod-Moliya" 2019. – 800 b
2. I.K.Ochilov, J.E.Qurbonboyev "Moliyaviy hisob". O'quv qo'llanma. "IQTISOD MOLIYA", 2017-y.
3. A.Ibragimov va boshqalar "Moliyaviy va boshqaruv hisobi". O'quv qo'llanma."IQTISOD -MOLIYA", 2018-y.
4. Akhmedova, N. (2022). DEFINITION OF THE CONCEPT OF" ALGORITHMIC COMPETENCE". Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(12), 140-143.
5. Машарипов, В. У., Мирвалиева, Н. Р., & Абдуллаев, У. М. (2023). Местный иммунитет и специфическая сенсибилизация к антигенам бактерий у больных тонзиллитом. Science and Education, 4(2), 392-400.

## GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA ILG'OR XORIJIY PEDAGOGIK TAJRIBALAR DAN FOYDALANISH USULLARI

Mustafoyeva Muhayyo Bekmurodovna

Samarqand viloyati Narpay tumani 4-umumiy o'rta ta'lif maktabining Geografiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Deyarli ko'pchilik mamlakatlarda geografiya ta'lif tizimi davlatning ijtimoiy - siyosiy va iqtisodiy tizimi bilan bog'liq. Tabiiy va iqtisodiy geografiyanı o'rganish asos qilib olingan MDH va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida tabiat va xo'jalikning rivojlanish qonuniyatları, jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlar, atrof-muhit muammolari geografiya ta'lifining asosini tashkil qiladi. Ushbu maqolada bu xususida batafsil to'xtalib o'tilgan va geografiya fanini o'qitishda ayrim xorijiy mamlakatlar tajribasi va ulardagi ilg'or o'qitish usullari yoritilib berilgan.

**Kalit so'zlar:** xorij geografiya ta'limi, jahon tajribasi, rivojlangan davlatlarda geografiya ta'limi, rivojlanayotgan davlatlarda geografiya ta'limi, fin mamlakatlarida geografiya ta'limi.

Rivojlangan mamlakatlarda geografiya ta'lifining mazmuni sifat jihatidan yuqori bo'lib, o'quvchilar ma'lum ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Bu davlatlarda geografiya ta'limi ko'proq muammolarni, turli nazariya va qonunlarni, kategoriyalarni o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, o'quvchilarga o'zlashtirishda birmuncha qiyinchiliklar tug'diradi.

Rivojlangan g'arb mamlakatlari geografiya ta'limida ta'lifning ruhiy jabhalari asosiy o'rinni egallagan. O'quvchi ruhiyati, uni bilish faoliyatini o'rganish katta e'tibor beriladi. Geografiya ta'limi tadqiqotlari psixologlar ishtirokisiz deyarli amalga oshirilmaydi. Geografiya ta'limida turli matnlar, o'yinlar, imitatsiya keng qo'llaniladi. Masalan, o'quvchi biror kompaniya prezidenti sifatida fikrlaydi, ish yuritadi, biror muammoni hal qiladi, o'zi xulosalar chiqaradi. Umuman bunda ta'lifning asosiy maqsadi o'quvchilarni kelgusi hayotga, ya'ni ishbilarmonlikka tayyorlashdan iborat.

Turli mamlakatlardagi geografiyadan o'quv darsliklari va qo'llanmalarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, ularda bitta kursni o'qish uchun bir necha qo'llanma chiqariladi. Ko'pchilik hollarda ular ma'lumotlarga boy bo'lib, axborot xususiyatiga ega. Bunday qo'llanmalarda matn 20-40 foizni, tasvir 20 foizni, statistika 20 foizni, savol va topshiriqlar 20 foizni tashkil qiladi. Kitobdagagi tasvirlar nihoyatda sifatli. Quyi sinflar qo'llanmalarida esa deyarli xarita yo'q, ular o'rnini xarita sxemalar egallagan. Matnda raqamli sonlar deyarli uchramaydi, mayjudlari ham taqqoslash xarakteriga ega

bo'lib, ular eng past, eng yuqori, eng kichik, eng baland, eng uzun kabi tarzlarda berilgan.

Mavzu yoki bo'limdan keyin qo'yiladigan savollar va topshiriqlar mavzu mazmunini aks ettirmasligi ham mumkin. Qo'yiladigan savollarning aksariyati muammoli topshiriqlar, diskussiya savollari, amaliy o'yinlar tarzida berilgan. O'quvchilar uchun chiqarilgan geografiya darsliklarida kompyuterlar bilan ishlash uchun maxsus savollar, qiziqarli topshiriqlar, matematik statistika usullari, turli o'yinlar, testlar tarzida geografik bilimlarni egallashga keng o'rinn berilgan. O'quvchilar ularni mustaqil bajarish jaraenida tadqiqotchi rolini o'ynaydilar. Demak, geografiya darsligi rivojlangan mamlakatlar geografiya ta'limi metodikasida eng yetakchi o'rinni egallaydi.

Geografiya fani bo'yicha respublikamizda xorijiy mamlakatlarning ta'lim tajribasidan kelib chiqqan holda quydagি ishlarni amalga oshirish mumkin:

- dars jarayonida faollashtirish, muammoli hamda tadqiqot xarakteriga ega bo'lgan yangi g'oyalar yaratish;
- tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqs adlar qo'yish;
- noan'anaviy yondashuvlar, odatiy bo'lмаган tashabbuslar orqali harakatga keltiruvchi, ta'lim jarayonining sifatini kafolatlaydigan innovatsion metodlar yaratish va amaliyotga tatbiq etish;
- o'quv topshiriqlari, nostonart testlardan iborat bo'lgan darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish;
- o'qituvchi innovatsiyalarning mohiyatini to'la tushunishi va o'z faoliyatiga izchil tatbiq eta olishi zarur.

Geografik o'yinlar darsning mavzusi va o'tkaziladigan muddatini o'qituvchi oldindan belgilaydi. O'yinga tayyorgarlikda o'qituvchi geografik o'ylarning tarkibiy tuzilishini aniqlab oladi. Geografik o'ylarning tarkibiy tuzilishiga quyidagilar kiradi:

- o'yin maqsadi va loyihasini ishlab chiqish;
- o'yinda ishtirok etadigan personajlarni aniqlash;
- o'yinda ko'zda tutilgan personajlarning vazifalarini ishlab chiqish;
- ma'lum bir personajlar bajaradigan vazifalarni bajarish metodini ishlab chiqish yoki tanlash;
- geografik o'yinda ishtirok etadigan personajlar o'rtasidagi munosabatlarni ishlab chiqish.

Geografik o'ylarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat.

- geografik o‘yinlar bilan dars o‘tilganda o‘quvchilarda rivojlantiruvchi faoliyat vujudga keladi. Bunday jarayonda ishtirok etayotgan o‘quvchilar rollarini va vazifalarini erkin tanlashdi. Masalan, ekspeditsiya o‘yinlarida kema darg‘asi, boshqaruvchi, kuzatuvchi, kartograf, dengizchilar va boshqa rollar;

- geografik o‘yinlar bilan shug‘ullanish jarayonida ijodiy muhitni va munozaralari topshiriqlarni vujudga kelishi. O‘quvchilar geografik o‘yin davomida aniq bir rollar va vazifalarni bajarish jarayonida ijodiy ishlar bilan mashg’ul bo‘lishadi, ma’lum bir muammolarni hamkorlikda yechishadi.

**Xulosa:** Mamlakatimizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan ishlar iqtisodiyot sohalari va ilm-fan sohasidagi islohotlar umumiyligi o‘rtalim maktablarida geografiya ta’limini isloq qilishga ahamiyat berilmoqda. Geografiya fani sohasida ham ta’lim jarayoniga ilg’or xalqaro tajribalarni joriy etish, o‘quvchilarning fanni o‘qish orqali bilim darajasining oshirishga xizmat qiladi. O‘qitish amaliyotiga ta’limning innovatsion shakllarini joriy etish, o‘quvchilarning bilim, ko’nikma, malaka va kompetensiyalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Bu vazifani amalga oshirishda hozirgi zamonaviy pedagogning kasbiy mahorati alohida o‘rin tutadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Akhmedova, N. (2022). DEFINITION OF THE CONCEPT OF "ALGORITHMIC COMPETENCE". Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(12), 140-143.
2. Israilova, S. (2023). THE PRAGMATIC OCCURRENCE AND MENTAL PROPERTIES OF COLOR COMPONENT UNITS IN CONTEXT. Interpretation and researches, 1(5).
3. Ахмедова, Н. М. (2017). В помощь арифметике. Молодой ученый, (4-2), 14-15.
4. Машарипов, В. У., Мирвалиева, Н. Р., & Абдуллаев, У. М. (2023). Местный иммунитет и специфическая сенсибилизация к антигенам бактерий у больных тонзиллитом. Science and Education, 4(2), 392-400.
5. Усмонова, Д. Т. (2023). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КЕЙС-ТЕХНОЛОГИИ ПО ПРЕДМЕТУ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ХИМИИ НА ТЕМУ «ПРОМЫШЛЕННЫЕ ОТХОДЫ». Educational Research in Universal Sciences, 2(2), 637-643.

## ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ КРЕДИТЛАРИНИНГ РИСКЛИЛИГИ ВА ДАРОМАДЛИЛИГИ

Гадоев Сўхроб Жумакулович

Термиз давлат унивеситети Молия кафедра мудири, PhD, доцент

[suhrob.gadoev.81@mail.ru](mailto:suhrob.gadoev.81@mail.ru)

Кредит механизмини такомиллаштириш юридик ва жисмоний шахсларнинг тижорат банкларининг кредитлариiga бўлган талабини қондиришнинг зарурй шарти ҳисобланади. Кредитларнинг фоиз ставкаларининг паст ва барқарор даражасини таъминлаш берилган кредитлардан фойдаланиш самарадорлигини таъминлашда муҳим ўрин тутади.

2020 - 2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегиясида фақатгина бозор талаблари асосида кредитлаш, кредит портфели сифати ва таваккалчиликларни бошқариш сифатини яхшилаш, кредитлаш ҳажмлари ўсишининг мўътадил даражасига амал қилиш мамлакат банк тизимини ислоҳ қилишнинг устувор йўналишлари сифатида эътироф этилган<sup>1</sup>.

Кредит механизмининг амалдаги ҳолатига баҳо бериш учун тижорат банклари томонидан берилган кредитларнинг таркиби ва динамикасини, даромадлилигини ва кредит рискининг даражаларини тавсифловчи кўрсаткичларни таҳлил қиласиз.

### 1-жадвал

#### Ўзбекистон Республикаси тижорат банклари кредитларининг тармоқ таркиби, фоизда<sup>2</sup>

Тармоқлар	2018 й.	2019 й.	2020 й.	2021 й.	2022 й.
Саноат	39,8	35,7	36,9	36,0	32,5
Қишлоқ хўжалиги	5,6	8,1	10,1	10,7	10,8
Қурилиш	3,5	2,8	2,7	2,8	2,7
Савдо ва умумий хизмат	6,4	6,8	7,2	8,4	7,4
Транспорт ва коммуникация	12,5	11,1	9,6	8,8	7,6

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги ПФ-5992-сонли Фармони. 2020 - 2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида//Конун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.05.2020 й., 06/20/5992/0581-сон; Конунчилик маълумотлари миллий базаси, 18.10.2021 й., 06/21/6325/0972-сон; 30.12.2021 й., 06/21/42/1224-сон, 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон; 10.06.2022 й., 06/22/152/0507-сон; 27.04.2023 й., 06/23/62/0232-сон.

<sup>2</sup> Жадвал муаллиф томонидан Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг расмий статистик маълумотлари ([www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)) асосида тузилган.

Моддий-техника таъминоти	1,6	1,5	1,4	1,2	1,0
Уй-жой коммунал хўжалиги	1,1	1,2	1,4	0,7	0,5
Жисмоний шахслар	14,6	18,9	19,8	21,3	25,9
Бошқа соҳалар	14,8	13,7	10,9	10,0	11,7
<b>Кредитлар - жами</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>

1-жадвал маълумотларидан кўринадики, 2018-2022 йилларда республикамиз тижорат банклари томонидан берилган кредитларнинг тармоқ таркибида энг юқори салмоқни саноат корхоналарига берилган кредитлар эгаллаган.

1-жадвал маълумотларидан кўринадики, 2018-2022 йилларда республикамиз тижорат банклари кредитларининг тармоқ таркибида моддий-техника таъминоти ва уй-жой коммунал хўжалигига берилган кредитлар нисбатан кичик салмоқни эгаллаган. Бу эса, мазкур тармоқларда фойда меъёрининг паст эканлиги ва уларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш амалиётининг мавжудлиги билан изоҳланади.

Таҳлилдан кўринадики, республикамиз тижорат банклари томонидан кредит портфелини диверсификация мезонига (25%) амал қилинмаган. Яъни, 2023 йилнинг 1 январь ҳолатига, республикамиз тижорат банклари кредитларининг 32,5 фоизини саноат тармоғига берилган кредитлар ташкил этди.

Таҳлил натижалари кўрсатдики, 2016-2022 йилларда кредитлар Ўзсаноатқурилишбанкнинг активлари ҳажмида юқори салмоқни эгаллаган. Бироқ, 2018-2022 йилларда кредитларнинг брутто активлар ҳажмидаги салмоғи пасайиш тенденсияга эга бўлган. Бу эса, таҳлил қилинган давр мобайнида қимматли қофозларга қилинган инвестицияларнинг брутто активлар ҳажмидаги салмоғини ўсиш тенденциясига эга бўлганлиги билан изоҳланади.

## 2-жадвал

### ЎзСаноатқурилишбанк кредитларининг даромадлилигини тавсифловчи кўрсаткичлар<sup>3</sup>

Кўрсаткичлар	2016 й.	2017 й.	2018 й.	2019 й.	2020 й.	2021 й.	2022 й.
Кредитлар, млрд. сўм	8634	20207	27293	29442	39898	43147	48075
Кредитлардан олинган фоизли даромадлар, млрд. сўм	414	633	1270	2108	3007	3747	4591

<sup>3</sup> Жадвал муаллиф томонидан ЎзСаноатқурилишбанкнинг йиллик ҳисоботлари маълумотлари асосида тузилган.

1 сўмлик кредитга тўғри келадиган даромад даражаси, %	4,8	3,1	4,7	7,2	7,5	8,8	9,5
---	-----	-----	-----	-----	-----	-----	-----

\* Муаллиф ишланмаси

2-жадвал маълумотларидан кўринадики, 2016-2022 йилларда ЎзСаноатқурилишбанк томонидан берилган кредитларнинг миқдори ўсиш тенденсиясига эга бўлган. Шунингдек, мазқур даврда кредитлардан олинган фоизли даромадларнинг миқдори ҳам ўсиш тенденсиясига эга бўлган.

2-жадвал маълумотларидан кўринадики, ЎзСаноатқурилишбанк кредитларининг даромадлилик даражаси таҳлил қилинган давр мобайнида нобарқарор бўлган. Бу эса, банкнинг кредитлаш амалиётини такомиллаштириш нуқтаи назаридан салбий ҳолат ҳисобланади. Шундай бўлишига қарамасдан, 2018-2022 йилларда ЎзСаноатқурилишбанк кредитларининг даромадлилик даражаси ошиш тенденсиясига эга бўлган.

## Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги ПФ-5992-сонли Фармони. 2020 - 2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида//Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.05.2020 й., 06/20/5992/0581-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 18.10.2021 й., 06/21/6325/0972-сон; 30.12.2021 й., 06/21/42/1224-сон, 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон; 10.06.2022 й., 06/22/152/0507-сон; 27.04.2023 й., 06/23/62/0232-сон.

2. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг фаолияти тўғрисида ҳисоботлар. – Тошкент, 2018, 2019, 2020, 2021, 2022. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)

3. ЎзСаноатқурилишбанк. Тижорат банкининг баланс ҳисоботлари. 2016, 2017, 2018, 2019, 2020, 2021, 2022. [www.sqb.uz](http://www.sqb.uz)

**«CONFERENCE ON UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH 2023» VOLUME-1,  
ISSUE-7 (31 IYUL)  
MUNDARIJA**

<b>1</b>	What is the tips to enhance public speaking skills <b>Bahromova Munisa Otabekovna</b>	<b>5-7</b>
<b>2</b>	The latest speaking activities <b>Bahromova Munisa Otabekovna</b>	<b>8-9</b>
<b>3</b>	ШУКУР ХОЛМИРЗАЕВНИНГ АДАБИЙ-ТАНҚИДИЙ МЕРОСИГА ДОИР <b>Сафаров Отабек Мухаммадиевич</b>	<b>10-14</b>
<b>4</b>	Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarining maqsad, vazifalari <b>Qutlimuratova Dinora Ravshanbek qizi.</b>	<b>15-18</b>
<b>5</b>	O‘qish darslarini zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida tashkil qilish metodikasi <b>Qutlimuratova Dinora Ravshanbek qizi.</b>	<b>19-21</b>
<b>6</b>	EDUCATION OF PHYSICAL EDUCATION AT SCHOOL <b>Elboeva Umida Rakhimdzhon kizi</b>	<b>22-24</b>
<b>7</b>	ONG PATOLOGIYASINING PSIXOTIK TIPLARI <b>Otamurodov Rustam, Jaloliddinova Sevinch, Isomiddinova Sarviniso</b>	<b>25-27</b>
<b>8</b>	Emotsiya va hisiyot nazariyalari mulohazasi <b>Ravshanov Olim, Isomiddinova Sarviniso, Jaloliddinova Sevinch</b>	<b>28-32</b>
<b>9</b>	Elektron tijoratda moliyaviy xizmatlarning raqamli transformatsiyasi (Digital Transformation) <b>Qodirova Ozoda Raxmuddin qizi, Ubaydullayeva Shohista Hidoyatillo qizi</b>	<b>33-39</b>
<b>10</b>	YANGI TASHKIL ETILGAN LENIN YO‘LI (QIZIRIQ) RAYONINING KADRLAR BILAN TA’MINLANISHI <b>Qulboshev Sirojiddin Jumayevich</b>	<b>40-42</b>
<b>11</b>	МЕДИАНИНГ ЖАМОАТЧИЛИК ФИКРИНИ ШАКЛАНТИРИШ ВА ИНФОРМАЦИОН СТРЕССДАН ҲИМОЯЛОВЧИ ФУНКЦИЯСИ <b>Жақсимуратова Гулжаҳан</b>	<b>43-45</b>
<b>12</b>	“САМАРКАНДСКИЙ ДУХ” ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА <b>Эргашева Мохидил Давлатмирза қизи</b>	<b>46-50</b>
<b>13</b>	O‘ZBEKİSTON-MISR: TA’LIM SOHASIDA НАМКОРЛИК <b>Ergasheva Mohidil Davlatmirza qizi</b>	<b>51-55</b>
<b>14</b>	Аналитический отдел как составляющая часть метода научного исследования путём рассмотрения интегральной подготовленности футболистов и основана инструментария повышения спортивного мастерства <b>Д.К. Исмагилов</b>	<b>56-58</b>
<b>15</b>	Patissonni iste’mol qilish usullari <b>Kenjayeva To‘lg‘onoy Rahmonovna</b>	<b>59-61</b>
<b>16</b>	Development of competence and professional competence of a teacher in higher education <b>Sh.O.Mamayoqubova</b>	<b>62-65</b>

<b>17</b>	Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon <b>Majidova Mehriningor</b>	<b>66-69</b>
<b>18</b>	UNRAVELING THE MAGNIFICENCE OF ANCIENT AYUTTHAI CITY <b>Kozimjon Olimov</b>	<b>70-72</b>
<b>19</b>	ОСОБЕННОСТИ ЗНАЧЕНИЕ ВЛИЯНИЕ ФАКТОРОВ РИСКА НА РАСПРОСТРАНЕННОСТИ БРОНХИАЛЬНОЙ АСТМЫ У ДЕТЕЙ ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА <b>Файзиева У.Р, Уракова У.Э</b>	<b>73-74</b>
<b>20</b>	Multi-existing complications of gastric ulcer and duodenum <b>Jumanazarova Mokhinur Jumanazar kiz</b>	<b>75-77</b>
<b>21</b>	Lesya Ukrainkaning shoh asari – “O‘rmon qo‘shig‘i” dramatik poemasi Sirojiddin Rauf tarjimasida <b>R. Zaripova</b>	<b>78-84</b>
<b>22</b>	ISHEMIK INSULT BILAN IKKINCHI TURDAGI QANDLI DIABET BILAN OG‘RIGAN BEMORLARDA KOMORBID PATOLOGIYA <b>X. R. Bobokulov, M. B. Urinov</b>	<b>85-87</b>
<b>23</b>	MOLIYA TIZIMI VA FANDAGI O‘RNI <b>Nasimova Yulduz Baxriddin qizi</b>	<b>88-90</b>
<b>24</b>	GEOGRAFIYA FANINI O‘QITISHDA ILG‘OR XORIJY PEDAGOGIK TAJRIBALAR DAN FOYDALANISH USULLARI <b>Mustafoyeva Muhayyo Bekmurodovna</b>	<b>91-93</b>
<b>25</b>	ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ КРЕДИТЛАРИНИНГ РИСКЛИЛИГИ ВА ДАРОМАДЛИЛИГИ <b>Гадоев Сўхроб Жумакулович</b>	<b>94-96</b>
<b>26</b>	<b>MUNDARIJA</b>	<b>97-98</b>